



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

“YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB,  
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!”

# VATANPARVAR



## SERGAKMIZ VATANNING SARHADLARIDA

Kichik serjant Ixtiyorjon MAMAJONOV 



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,  
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING  
24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN  
[WWW.MV-VATANPARVAR.UZ](http://WWW.MV-VATANPARVAR.UZ)

2026-YIL 22-MAY  
№21 (3187)



Qaror va ijro

# “BIR ASKAR – BIR KASB”:

**Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim olishi, kasb egallashi hamda kelajakda munosib o'rin topishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar nafaqat ularning Vatan oldidagi burchini sidqidildan bajarishiga, balki xizmat davomida o'z kelajagini mustahkam poydevor asosida qurishiga xizmat qilmoqda.**

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tomonidan milliy armiyamiz tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar harbiy xizmat nufuzini yanada oshirish, uning jozibadorligini kuchaytirish hamda yoshlarning armiyaga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Bu borada qabul qilinayotgan qaror va farmonlar esa harbiy xizmatchilar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Jumladan, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan joriy yil 13-yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida yoshlar qalbida harbiy-vatanparvarlik ruhini kuchaytirish, harbiy xizmat nufuzini yanada oshirish, ularda mas'uliyat, intizom va fuqarolik burchiga sadoqat kabi fazilatlarini kamol toptirish bo'yicha qator muhim topshiriqlar belgilab berilgan edi.

Mazkur topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida bugungi kunda harbiy qism va muassasalarda keng ko'lamli amaliy ishlar izchil davom ettirilmoqda. Ayniqsa, **davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Bir askar – bir kasb” tamoyili harbiy qismlarda samarali yo'lga qo'yilib, muddatli harbiy xizmatchilarning xizmat jarayonida zamonaviy va talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlarini egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.**

Bu borada harbiy qismlarda maxsus o'quv kurslar tashkil etilib, yoshlarga turli yo'nalishlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berilmoqda. Xususan, Toshkent viloyatining Zangiota tumanida joylashgan aloqachilar harbiy qismida ham “Bir askar – bir kasb” tamoyili asosida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu harbiy qismda muddatli harbiy xizmatchilarni kasb-hunarga o'rgatish maqsadida tajribali mutaxassislar jalb qilinib, amaliy mashg'ulotlar va kasbiy tayyorgarlik kurslari yo'lga qo'yilgan.

Eng muhimi, bunday tizim yoshlarda vaqtdan unumli foydalanish, o'z ustida ishlash va kelajakka aniq maqsadlar bilan intilish kabi muhim fazilatlarini shakllantirmoqda.



**Bu esa mamlakatimizda har tomonlama yetuk, bilimli, vatanparvar va raqobatbardosh yosh avlodni tarbiyalash yo'lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.**

– Ayni vaqtda biz harbiy xizmatni o'tash bilan bir qatorda, harbiy qismimizda tashkil etilgan oliy ta'limga tayyorlov kurslarida o'z bilimimizni oshirmoqdamiz, – deydi muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Doston Muhammadyusufov. – Harbiy qismimizda bunday imkoniyat yaratilgani menga katta motivatsiya berdi. Shu sababli darslarda faol qatnashib, bilimlarimni yanada mustahkamlashga harakat qilayapman. Darslar juda yaxshi tashkil etilgan.

Malakali o'qituvchilar tomonidan bizga asosiy fanlar bo'yicha chuqur bilim berilmoqda. Bir vaqtning o'zida ham Vatan oldidagi burchimizni bajaryapmiz, ham kelajagimiz uchun mustahkam poydevor yaratyapmiz. Bu e'tibor uchun davlatimiz va Mudofaa vazirligiga minnatdorlik bildiraman. Kelajakda oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirib, kiberxavfsizlik yo'nalishi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lishni maqsad qilganman.

Darhaqiqat, **“Bir askar – bir kasb” tamoyilini hayotga samarali tatbiq etish maqsadida harbiy qism hamda tumandagi 2-son texnikum o'rtasida o'zaro hamkorlik memorandumi imzolaniib, bu yo'nalishda tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan.** Mazkur hamkorlik asosida yangi chaqirilgan muddatli harbiy xizmatchilarning qiziqishi, qobiliyati va kelajakdagi rejalaridan kelib chiqqan holda saralab olinib, ularni muayyan kasb-hunarlariga o'qitish ishlari tashkil etilgan.

Xususan, harbiy xizmatchilar uchun avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, chilangarlik ishlari, dehqonchilik va limonariya, chorvachilik, kompyuter IT va dasturlash, buxgalteriya hamda tadbirkorlik kabi bugungi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha 3 oydan 6 oygacha davom etadigan qisqa muddatli o'quv kurslari yo'lga qo'yilgan. Mashg'ulotlar davomida ularga sohaning yetuk mutaxassislari tomonidan nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar ham berilib, mustaqil faoliyat yuritish uchun zarur tajriba shakllantirilmoqda.



# KELAJAK UCHUN MUHIM QADAM

Shu bilan birga harbiy xizmatchilarning xalqaro til bilimini oshirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish hamda kelgusidagi imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida ingliz tili kurslari ham tashkil etilgan. **Ushbu kurslarda ishtirok etayotgan yoshlar chet tilini o'rganish orqali xalqaro axborot manbalaridan foydalanish, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish va kelajakda raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.**

– Bugungi kunda harbiy xizmatchilarning xizmat davrida vaqtdan samarali foydalanishi, kasb egallashi va kelajagini rejalashtirishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda, – deydi podpolkovnik Yodgor Murodov. – Shu asosda tumandagi 2-son texnikum va maktablar bilan hamkorlik memorandumi imzolaniib, darslar tashkil etildi. Bu jarayonda, avvalo harbiy xizmatchilarning qiziqishi va qobiliyatlari o'rganildi. Shundan so'ng ular turli yo'nalishlarga taqsimlandi. Kasbga o'qitish kurslari, oliy ta'limga tayyorlov mashg'ulotlari hamda chet tillarini o'rganish darslari uchun malakali o'qituvchi va mutaxassislar jalb qilindi. Hozirda mashg'ulotlar belgilangan reja asosida muntazam o'tkazilmoqda.

**Yaratilayotgan bunday imkoniyatlar armiya faqatgina harbiy tayyorgarlik maktabi emas, balki hayot maktabi ekanini yana bir bor isbotlamoqda.** Harbiy xizmat davomida yoshlar nafaqat intizom, jasorat va vatanparvarlikni o'rganadi, balki kelajak kasbi va ta'limi uchun muhim qadamlarni ham tashlaydi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy qismda yo'lga qo'yilgan mazkur tizim yoshlarning xizmat davrini mazmunli va samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Bir askar – bir kasb" tamoyili asosida yuzlab muddatli harbiy xizmatchilar turli kasb-hunarlariga o'qitilayotgani, oliy ta'lim muassasalariga kirish istagida bo'lgan yoshlar uchun tayyorlov darslari tashkil etilgani, shuningdek, ingliz tili kabi qo'shimcha bilim yo'nalishlarining yo'lga qo'yilgani harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan imkoniyatlarning yanada kengayganini ko'rsatmoqda.

**E'tiborli jihati shundaki, bu jarayonga harbiy qism qo'mondonligi, ta'lim muassasalari o'qituvchilari, soha mutaxassislari hamda harbiy xizmatchilarning o'zi birdek mas'uliyat bilan yondashmoqda.** Umuman olganda ushbu tashabbus yoshlarning kelajagini ta'minlash, ularni hayotga tayyorlash va jamiyatga malakali kadr sifatida qaytarishda muhim o'rin tutadi.

Albatta, **Vatan himoyasida turgan yoshlarning bir vaqtning o'zida bilim olishi, kasb egallashi va o'z kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratayotgani yurtimizda inson qadri va yoshlar kelajagiga qaratilayotgan yuksak e'tiborning amaliy ifodasidir.** Bu esa ertangi kunga ishonch bilan qaraydigan, bilimli, kasbli va vatanparvar avlodni tarbiyalash yo'lidagi muhim qadamdir.

**Leytenant  
Mansurbek JABBOROV,  
"Vatanparvar"**



Ayniqsa, kompyuter texnologiyalari va dasturlash yo'nalishiga qiziqish bildirgan yoshlar uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, dasturiy mahsulotlar yaratish va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha alohida darslar tashkil etilgani e'tiborga molik. Shuningdek, tadbirkorlik yo'nalishida tahsil olayotgan harbiy xizmatchilarga biznesni boshqarish, moliyaviy savodxonlik va o'z faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha muhim tushunchalar berilmoqda.

**Shu bilan bir qatorda, faqat kasb o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, harbiy xizmatchilarning oliy ta'lim olish istagi ham qo'llab-quvvatlanmoqda.** Hozirda harbiy qismda bir guruh muddatli harbiy xizmatchilar oliy ta'lim muassasalarining masofaviy ta'lim shakliga o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'rmoqda.

– Ayni vaqtda harbiy qismda tashkil etilgan oliy ta'limga tayyorlov kurslarida muddatli harbiy xizmatchilarga ona tili va adabiyot fanidan dars berib kelyapman, – deydi, oliy toifali o'qituvchi To'xtatosh Pardayeva. – Jarayon juda qiziqarli va mas'uliyatli kechmoqda. Yigitlarimizda bilim olishga bo'lgan intilish juda yuqori. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishni maqsad qilgan harbiy xizmatchilar darslarda faol ishtirok etib, har bir mavzuni chuqur o'zlashtirishga harakat qilmoqda. Ularning ko'zlaridan ilmga chanqoqligi va maqsadi sari dadil harakat qilayotgani sezilib turadi. Bu esa meni darslarga jiddiyroq tayyorgarlik ko'rib kelishga undaydi. Albatta harbiy xizmat bilan bir vaqtning o'zida ta'lim olish oson emas, ammo shunga qaramasdan ular o'z kelajagi uchun astoydil harakat qilmoqda. Bu esa yoshlarimizning maqsadi aniq ekanidan dalolat beradi.

Shuni alohida aytib o'tish kerakki, darslar Zangiota tumanidagi maktablar bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilib, malakali o'qituvchilar tomonidan askarlarga ona tili va adabiyot, tarix, fizika, matematika va ingliz tili fanlari bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.



Ilmiy-ma'rifiy maskan

# O'ZBEKISTONNING ULKAN TASHABBUSI SIRI

**Toshkent shahrida barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi – bu oddiy me'moriy inshoot emas, balki chuqur ma'no va sivilizatsion yondashuvni o'zida mujassam etgan maskan. Qariyb 9 yil davomida bunyod etilgan ushbu majmua bugungi kunda nafaqat O'zbekiston, balki butun mintaqadagi eng yirik ilmiy-ma'rifiy markazlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.**



Bino me'morchiligidagi salobat, mukammal geometrik shakllar, nafis naqshlar va devorlardagi muqaddas yozuvlar islom me'morchiligining asrlar davomida sayqallangan an'analarini zamonaviy uslub bilan uyg'unlashtirgan. Har bir arxitektura elementi bu nafaqat estetika, balki ma'no, ramz va tarixdir. Shu bois markazga tashrif buyurgan har bir inson hali ichkariga kirmasdan o'zining qanday ulkan va serqirra ma'naviy olam ekanini his etadi.

Markaz ichiga qadam qo'yish bilan bu tasavvur real tajribaga aylanadi. **Bu yerda barcha yo'nalishlar – din, tarix, ilm-fan va san'at alohida-alohida emas, balki bir-birini to'ldiruvchi yagona manzara sifatida namoyon bo'ladi.** Ana shu uyg'un manzaraning markazida esa Qur'oni karim zali joylashgan bo'lib, u Islom ma'naviyatining eng chuqur ildizlarini namoyon etuvchi muqaddas makon hisoblanadi. Bu yerda markazning yuragi va islom olami uchun beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan muqaddas meros – VII asrga mansub, xalifa Usmon ibn Affon (*roziyallohu anhu*) davrida ko'chirilgan Hazrati Usmon mus'hafi saqlanmoqda. Shuningdek, zalda O'zbekiston bilan bog'liq 114 ta Qur'on qo'lyozmalari namoyish etilgan bo'lib, devorlarda o'zlarining bezatilgan 8 ta ipak gilam joylashtirilgan.

Aynan shu ruhiy asos ustida shakllangan ilm-fan va madaniyat keyinchalik insoniyat taraqqiyotiga yo'l ochgan. **Markaz ekspozitsiyalari mazkur jarayonni bosqichma-bosqich namoyon etadi – Islomdan avvalgi sivilizatsiyalardan tortib, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari orqali Yangi O'zbekistongacha bo'lgan taraqqiyot yo'li zamonaviy, interaktiv va ko'rgazmali tarzda yoritilgan.** Bu yerda ma'naviyat va ilm uyg'unligi insoniyat taraqqiyotining uzviy zanjiri sifatida talqin etiladi.

Markaz ekspozitsiyalarida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi allomalarning merosi ular yashagan davr va ilmiy muhit bilan uzviy bog'liq

holda namoyon etilgan. Bu orqali ilm-fanning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari aniq va tushunarli tarzda ochib beriladi.

Bu yerda tashrif buyuruvchilar shunchaki tomoshabin bo'lib qolmaydi – ular ekspozitsiyani ko'radi, eshitadi va his qiladi; raqamli texnologiyalar orqali allomalar obrazlari bilan "muloqot qilish" imkoniga ega bo'ladi. Natijada tashrif oddiy kuzatuv emas, balki ilm va sivilizatsiyani bevosita his qilish tajribasiga aylanadi.

**Markaz faoliyatining asosiy yo'nalishi – islom sivilizatsiyasi merosini chuqur o'rganish, uni ilmiy asosda tadqiq etish va zamonaviy shakllarda keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat.** Shu bilan birga, bu maskan milliy tarix va ma'naviy qadriyatlarini xalqaro miqyosda targ'ib qilishga xizmat qiladi. Bu yerda an'ana va innovatsiya uyg'unligi yaqqol namoyon: interaktiv panellar, 3D vizualizatsiyalar va raqamli texnologiyalar orqali ekspozitsiyalar nafaqat ko'riladi, balki to'liq his etiladi. Shu tariqa markaz an'anaviy muzey tushunchasidan chiqib, zamonaviy ilmiy va ta'lim platformasiga aylanmoqda.

**Bu ulkan loyiha tashabbuskori – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hisoblanadi. Va davlat rahbari markazning ahamiyatiga alohida to'xtalib, uni quyidagicha ta'riflaydi:**

**"Biz bunyod etayotgan Islom sivilizatsiyasi markazi – bu faqat muzey emas, balki xalqimiz tarixi, ilm-fani va ma'naviyatini jahonga namoyon etadigan ilmiy-ma'rifiy maskan".**

Ushbu fikr markazning mohiyatini aniq ifoda etadi: u o'tmish merosini saqlash bilan cheklanib qolmay, uning mazmunini zamonaviy dunyoga yetkazishga xizmat qiladi.

**Qisqa vaqt ichida markaz katta yutuqlarga erishdi:**

u har kuni o'rtacha 5 000 nafardan ortiq mahalliy va xorijiy mehmonlarni qabul qilmoqda. Tashrif buyuruvchilar markazda yaratilgan muhit,

zamonaviy texnologiyalar va ekspozitsiyalarning mazmundorligini alohida e'tirof etib, o'zlarida chuqur taassurot qoldirganini ta'kidlamoqda. Shu bilan birga, markaz nufuzli xalqaro delegatsiyalar diqqat markaziga aylanib, zamonaviy muzey texnologiyalari joriy etilgan ilg'or maydon sifatida baholanmoqda.

**Xususan, Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish markaz haqida shunday dedi:**

**"Bu muzeyni ta'riflashga so'z topish qiyin – chinakamiga hayratlanarli. Umrimga bunday muzeyni hali ko'rmaganman".**

"BMT turizm" bosh kotibi Shayxa Nosir Al Novaysning ta'kidlashicha, **sivilizatsiyalar tarixi bu yerda zamonaviy texnologiyalar va immersiv san'at orqali juda ta'sirli tarzda taqdim etilgan bo'lib, bu kabi format tashrif buyuruvchilar uchun nafaqat axborot, balki chuqur tajriba ham taqdim etadi.** U markazni Toshkent va butun O'zbekiston uchun muhim madaniy va turizm nuqtasi sifatida baholadi.

Paragvay Prezidenti Santyago Penyaning fikricha, **"O'zbekiston tarixi – insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas qismi. Bu zamindan dunyo ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan meros shakllangan".**

Bu fikrlar markazning xalqaro darajada qanday qabul qilinayotganini yaqqol ko'rsatadi.

Muhim voqealardan biri sifatida qayd etish mumkinki, **markaz 2026-yil 13-aprel kuni markaz Guinness World Records tomonidan rasman "dunyodagi eng yirik Islom sivilizatsiyasi muzeyi" sifatida qayd etildi.**

Shu bilan birga, turkiy dunyo madaniy hamjamiyati – TURKSOY tomonidan markaz muzeyi **"Turkiy dunyodagi eng yaxshi muzey"** deb topilib, xalqaro anjuman doirasida alohida e'tirof etildi.

Bundan tashqari, markaz AQShdagi Smithsonian institutining rasmiy nashri – Smithsonian Magazine tomonidan **2026-yilda**

**dunyoda eng katta qiziqish bilan kutilayotgan 10 ta muzeydan biri sifatida e'tirof etildi.** Bu esa Markazni jahonning eng yirik muzey loyihalari qatoriga qo'yib, uning global madaniy va ilmiy ahamiyatini yanada mustahkamladi. Bu e'tiroflar markazning jahon muzey makonida alohida o'rin egallayotganini tasdiqlaydi.

Bu kabi yuksak baholar markazning jahon ilmiy va madaniy hamjamiyatidagi nufuzini mustahkamlab, uni xalqaro muloqot va hamkorlikning muhim platformasi sifatida namoyon etmoqda. Eng muhimi, bu yerda har bir ekspozitsiya, har bir element yagona g'oyaga xizmat qiladi – inson sivilizatsiyasi turli sohalar uyg'unligi orqali yuksaladi.

**Shu ma'noda, Islom sivilizatsiyasi markazi bu shunchaki tarixni namoyish etuvchi makon emas, balki uni anglash, his qilish va zamonaviy tafakkur bilan qayta talqin etish imkonini beruvchi noyob ma'naviy va ilmiy muhitdir.**

Bu yerda o'tmish va bugungi kun o'rtasidagi bog'liqlik aniq namoyon bo'lib, inson sivilizatsiyasining uzviy taraqqiyot yo'li chuqur mazmun bilan ochib beriladi. Markaz nafaqat milliy merosni saqlash va targ'ib qilishga, balki uni jahon hamjamiyatiga zamonaviy va ta'sirchan shaklda yetkazishga xizmat qilmoqda.

**Eng muhimi, bu maskan insonni o'z ildizlariga qaytarib, uning ma'naviy va intellektual dunyosiga ta'sir ko'rsatadi, o'tmish tajribasidan ilhom olgan holda kelajakni anglashga va yaratishga undaydi.** Shu jihatdan, Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat O'zbekistonning milliy g'ururi, balki sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotni mustahkamlovchi va global madaniy hamkorlikni rivojlantiruvchi muhim maydon sifatida namoyon bo'lmoqda. *(iccu.uz saytidan olindi)*

**Shahina ALIJONOVA**



## Vatanning buyuk farzandlari

**Turonzaminda Vatan ozodligi yo'lida bosqinchilarga qarshi qanchadan qancha jang-u jadallar bo'lib o'tgan. Dushmanlarga qarshi olib borilgan har bir jang o'z bahodirlari, o'z qahramonlarini kashf etgan. Biroq ularning sanoqlilarigina tarix sahifalaridan joy olgan, nomi mangulikka muhrlangan. Mana shunday xalq qahramonlaridan biri Temur Malik va Mahmud Torobiydir.**

## TEMUR MALIK

Temur Malik Jaloliddin Manguberdining yaqin safdoshi bo'lib, mo'g'ul istilosiga qarshi kurash olib borgan o'tyurak sarkarda sifatida e'tirof topgan. Ayniqsa, Temur Malikning 1220-yilning aprel oyida Xo'jand shahrini bosqinchilardan asrash yo'lidagi kurashi, shahar yaqinida Sirdaryo o'rtasidagi orolga qurdirgan qal'ada olib borgan jangi, o'ziga xos kurash taktikasi dushmanlarni lol qoldirgan. Tillardan tillarga o'tib, afsonalarga asos bo'lgan.

**Temur Malikka atab yozilgan badiiy asarlardan birida bu jang quyidagicha ta'riflanadi:** "Xo'jand viloyatining hokimi Temur Malik daryo o'rtasidagi qal'ani mustahkamlab, mo'g'ullar bilan jang qilishga jazm etdi. Sirdaryo ajoyib bir manzara kasb etgan, qirg'oqqa to'plangan kishilarni son-sanoqsiz qayiqalar va kemalar orolga tashimoqda. Ketmon, bel, arra, andava, tesha, bolta ushlagan kishilar sabrsizlik bilan o'z navbatlarini kutmoqda edi. Qal'a tepasidan yuzlarcha odamlar chumolidek uyumlashib, devor va burchlarning shikast yerini tuzatmoqda..."

Oradan bir hafta o'tar-o'tmas yigirma ming kishilik mo'g'ul qo'shini Xo'jandga yetib keldi. Shahar bo'sag'asida Xo'jand merganlari va askarlar mo'g'ullar bilan jang qildi. So'ng shaharga chekinib, tomlardan, darchalardan dushman ustiga o'q yog'dirib turdi va shu bilan Temur Malik askarlarining orolga batamom o'tib olishlariga yordam berdi. Temur Malikning maqsadi orolda turib, o'qtin-o'qtin dushmanga hujum qilish va yigirma minglik mo'g'ul qo'shinini uzoq vaqtgacha shu yerda tutib turib, Xorazmshohdan madad kelganidan keyin, ularni tor-mor qilish edi.

Mo'g'ullar qattiq jangdan so'ng shaharni ishg'ol qildi, biroq daryo o'rtasidagi istehkom ko'krak kerib, ularni jangga chorlab turardi. Manjanaqlardan otilgan tosh ham, o'q ham qirg'oqdan uzoqda bo'lgan qo'rg'onga shikast yetkazolmasdi. Ammo baland qo'rg'on tepasidan turib, qozonlardan shiddat bilan otilgan yumaloq toshlar mo'g'ullarga ko'p talafot yetkazdi. Qo'rg'on himoyachilari dushmanning daryo labiga kelib, qozon qurishga va katta o'q-yoylardan o'q otishiga imkon bermadilar..."

**Tarix sahifalariga nazar tashlasangiz,** Temur Malikning Sirdaryo o'rtasidagi qal'adan olib borgan jangida haqiqiy jasorat, mardlik va jang san'atining o'z davriga xos betakror qirralarini ko'rasiz. Tadbirkor sarkarda ming kishilik qo'shini bilan mo'g'ullarning 20 ming sonli lashkariga qarshi tura oladi. U dushman bilan nafaqat qal'a ichida turib kurashadi, balki maxsus kemalar orqali



# VATAN DARDI BILAN YONGAN MILLATMIZ

## MAHMUD TOROBIY

bosqinchilarga yaqin borib, talafotlar keltiradi. Ya'ni Temur Malik usti namat va sirkali loy bilan suvalgan, o'q otish uchun darchalar qilingan kemalar yasatadi. Har kuni tong saharda har ikki tomon qirg'oqqa oltitadan kema suzib kelib, yovga qirg'in keltiradi.

Mo'g'ullar oroldagi qal'ani mahf etish uchun 50 mingga yaqin aholini zo'rlik bilan olib keladi va tevarak-atrofdan tosh, shox-shabba va xashak keltirib, daryoga tashlata boshlaydi. Qal'adagilarning dushmanga qarata otgan o'q va toshlaridan aholi ham jabr cheka boshlaydi. Oxir-oqibat vaziyat taranglashgach, Temur Malik orolni tashlab ketishga majbur bo'ladi. U qolgan askarlari va yuklari ortilgan 70 qayiqda Sirdaryoning quyi oqimi tomon suzib ketadi. Mo'g'ullar daryoni to'sib qo'yadi. Temur Malik qirg'oqqa tushib, dushman bilan jang qiladi. Ko'p talafot berib, yolg'iz o'zi Qizilqum cho'li orqali 1220-yilning yozida Xorazmga yetib keladi. Askar to'plab, Jo'jixon qo'shiniga kuchli zarba beradi, Kasba (Yangikent) shahrini bosqinchilardan ozod qiladi. Ammo saltanatda yuzaga kelgan mushkul siyosiy vaziyat tufayli Xorazmni tark etadi.

**Temur Malik 1221-1232-yillar davomida Jaloliddin Manguberd bilan birgalikda mo'g'ullarga qarshi tinimsiz kurash olib boradi.** Sulton Jaloliddin halokatidan keyin o'z yurtiga qaytadi. Ma'lum vaqtdan so'ng Vatan ozodligi yo'lida umrini fido qilgan bahodir sarkarda mo'g'ullar tomonidan qo'lga olinadi va qatl etiladi. Yillar, asrlar davomida Temur Malik jasorati asarlarga muhrlanib xalq qalbidan teran joy olib ulguragan. Asrlar davomida unga bag'ishlab yozilgan asarlar el qalbidan munosib joy olib ulguragan. Ayni damda poytaxtimizdagi shoh ko'chalardan biriga sheryurak ajdodimizning nomi berilgan.

Torob qishlog'i o'z davrida mo'g'ul bosqinchilarining zulmiga qarshi xalq kurashining markaziga aylangan. Yurtini mo'g'ullar istibdodi va zulmidan ozod qilish va obod ko'rish istagi Mahmud Torobiydek elparvar insonlarning asosiy maqsadi bo'lgan.

**Manbalarda keltirilishicha,** 1238-yilda Buxoro atrofidagi qishloqlarning dehqon va kosiblari o'zaro maslahatlashib, bosqinchilarga qarshi ochiq kurashga kirishadi. Qo'zg'olonga rahbarlik qilishni Torobiydan o'sha davrning mashhur tasavvuf shayxi va ulamosi, qo'zg'olonchilarning ma'naviy piri Shamsuddin Mahbubiy so'ragan va bunga Torobiy mamnuniyat ila rozi bo'lgan. Juvayniyning yozishicha, Shamsuddin Mahbubiy qo'zg'olonchilarning g'oyaviy rahnamosi sifatida qo'shin va xalq o'rtasida katta tashviqot ishlarini olib borgan. Ular mo'g'ul bosqinchilari va ularning xizmatiga o'tgan mahalliy ma'murlarning mol-mulkini beva-bechoralarga tarqatib berishgan.

Torobiyning opasi ham qo'zg'olonning faol ishtirokchilaridan biri bo'lgan. Bu tabib va duoxon ayol o'z mardligi, kuch-g'ayrati, jasorati va dushmanga nafrati bilan qo'zg'olonchilar orasida alohida ajralib turgan.

**Mahmud Torobiy boshchiligidagi Buxoro butunlay qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi.** Shahardagi Malik Sanjar qasri (1206-yilda Buxoroda ko'tarilgan qo'zg'olon rahbari qurdirgan)ni egallab, o'zlariga qarorgoh qilib olishadi. Ularning safiga ko'plab tarafdorlar va maslakdoshlar kelib qo'shila boshlaydi. Mahmud Torobiy Robia saroyiga joylashib, sulton qilib ko'tarilgan. Shamsuddin Mahbubiy esa shahar sadri etib tayinlanadi.

Mo'g'ul bosqinchilari bu paytda Karmanaga qochib, shoshilinch tarzda kuch to'play boshlaydi. Qo'zg'olonchilarni bostirish uchun Buxoroga yurish qiladi. Ammo qora niyatiga yeta olmaydi. Karmanadan yuborilgan mo'g'ul qo'shinlarini yuragida vatanparvarlik tuyg'usi jo'sh turgan Torobiy boshchiligidagi qo'zg'olonchilar Buxoro atrofida tor-mor etishadi. Jangda 10 ming mo'g'ul askari o'ldiriladi. Qo'zg'olonchilar bosqinchilarni quvib, Karmanagacha borishadi. Afsuski, bu yerda bo'lib o'tgan shiddatli jangda xalq qahramoni Mahmud Torobiy va Shamsuddin Mahbubiy halok bo'ladi. Yo'l boshchisiz qolgan qo'zg'olonchilar esa mag'lubiyatga uchraydi.

Shunga qaramay, Torobiy qo'zg'oloni istsiz ketmaydi. Mo'g'ul ma'muriyati endilikda mahalliy aholi bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tushunib yetadi, o'lpon va soliqlarni kamaytiradi. Ma'lum muddat turli o'zboshimchaliklarga chek qo'yiladi.

**Xalqparvar ulug' ajdodimiz Mahmud Torobiy jasorati xalqiga munosib qalqon bo'la olgan jasur podshoh momimiz To'maris, erk uchun kurashgan xalq qahramonlari Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberd, Temur Malik, Najmiddin Kubrolar qatorida turadi.** Bunga ishonch hosil qilish uchun Juvayniyning "Jahongir Chingiz tarixi", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi"ga ko'z yugurtirishning o'zi kifoya. Oybekning "Mahmud Torobiy" dostoni, Asad Dilmurodning "Mahmud Torobiy" nomli tarixiy romanida ham moziy qatidagi unutilmas suronli yillar, jang-u jadallar qalamga olingan.

Bir so'z bilan aytganda, bahodir bobokalonlarimiz, momolarimiz - ulug' ajdodlarimiz jasorati biz uchun sharaf va iftixor ko'zgusi, Vatan dardi bilan yashagan millatimizning tarixga muhrlangan bukulmas g'ururidir.

Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"

Xalqaro hamkorlik



## SAMARQANDDA MDH CHEGARA QO'SHINLARI QO'MONDONLARI UCHRASHDI

Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi davlatlari Chegara qo'shinlari qo'mondonlari kengashining 92-yig'ilishida ham xavfsizlikni mustahkamlash va davlat chegaralarini himoya qilish yuzasidan keng ko'lamli masalalar ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi mezbonlik qilgan ushbu tadbirda ishtirokchi davlatlarning chegara idoralari rahbarlari va delegatsiyalari, shuningdek tegishli idoralar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashdi. Yig'ilishdan ko'zlangan asosiy maqsad – o'zaro xavfsizlikni mustahkamlash va davlat chegaralarini himoya qilish samaradorligini yanada oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Yig'ilish kun tartibidan chegara xavfsizligiga zamonaviy tahdidlar hisoblangan transmilliy jinoyatchilik,

**Bugungi global o'zgarishlar sharoitida chegara xavfsizligini ta'minlash masalalarida davlatlararo hamkorlik o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida mamlakatlar o'rtasida har tomonlama aloqalarning kengayishiga ham xizmat qilyapti.**

noqonuniy migratsiya va kontrabandaga qarshi kurash, axborot almashinuvi va tahliliy hamkorlik mexanizmlarini yanada rivojlantirish, qo'shma operatsiyalar hamda tadbirlarni o'tkazish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda ko'p tomonlama hamkorlik uchun huquqiy asoslarni mustahkamlash kabi dolzarb masalalar o'rin oldi.

Albatta, mazkur tadbirning eng qadimiy sivilizatsiya va madaniy muloqot markazlaridan biri bo'lgan Samarqandda o'tkazilishi, ishtirokchi davlatlarning o'zaro hurmat va konstruktiv hamkorlik tamoyillariga sodiqligini ramziy ma'noda ifoda etadi.

Uchrashuv ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasining konstruktiv hamkorlikni

rivojlantirish, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, chegara idoralari o'rtasida amaliy hamkorlikni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish borasidagi sa'y-harakatlarini yuqori baholadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi davlatlari Chegara qo'shinlari qo'mondonlari kengashi tomonidan zamonaviy xavf-xatar va tahdidlarga qarshi chora-tadbirlar va sa'y-harakatlarni birgalikda, tizimli hamda o'zaro muvofiqlashtirgan holda amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlandi.

– Shuni mamnuniyat bilan aytish kerakki, hamkasblarimiz tomonidan ko'rsatilgan hurmat-e'tibor bizning hamkorlikdagi amaliy ishlarimizning bevosita aksidir. Kengash yig'ilishida bir qancha masalalarga ahamiyat qaratildi. Xususan, o'tgan yillarda amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinib, kelgusidagi vazifalar belgilab olindi. Ko'rib chiqilgan muhim masalalardan yana biri, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va bu borada o'zaro amaliy hamkorlikni

kengaytirish bo'ldi. Ilmiy-texnikaviy faoliyatimizga ham katta e'tibor qaratyapmiz. Bu borada ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan chegaralarni qo'riqlash yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va yig'ilishda ushbu ishlar ma'qullandi. Fursatdan foydalanib, O'zbekiston rahbariyatiga, hamkasblarimga navbatdagi yig'ilishni yuqori darajada tashkil etganliklari uchun o'z minnatdorligimni bildirmoqchiman. O'ylaymizki, hamkorligimizni bundan buyon ham yuqori sur'atlarda davom ettiramiz, – deydi Chegara qo'shinlari qo'mondonlari kengashining muvofiqlashtiruvchi xizmati raisi Aleksandr Manilov.

Tadbir yakunida ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish, tashqi chegaralarni himoya qilish samaradorligini oshirish hamda xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan qarorlar qabul qilinib, tomonlar tashqi chegaralarning ishonchli himoyasini ta'minlash, o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash va hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish borasida kelishib oldi.

**Mayor**  
**Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari



Vatanning buyuk farzandlari

# AMIR TEMUR TASHQI SIYOSATIDA HARBIY DIPLOMATIYA

Amir Temur diplomatiyasida Sharq falsafasi, dono siyosati va diplomatik etiketga oid juda ko'p ijobiy elementlar namoyon bo'ladi. Uning shaxsan o'zi "Elchiga o'lim yo'q" tamoyilini doimo ilgari surgan. Uning bu kabi xislati bir qancha o'rta asrlar tarixchilari tomonidan ta'kidlangan. Xususan, Nizomiddin Shomiy o'zining "Zafarnoma" asarida Xorazm hukmdori Yusuf Sufiy va Amir Temur o'rtasida bo'lib o'tgan voqealarga oydinlik kiritadi.



Dastlab Xorazm hukmdori va sohibqiron o'rtasida yaxshi qo'shnichilik aloqalari o'rnatildi, Amir Temur munosabatlarni yanada mustahkamlash uchun Yusuf So'fiyning qizi bo'lmish Xonzodani o'g'li Jahongirga so'rattirdi. Ikkinchi tomon ham bunga rozi bo'lib, o'rtada qarindoshchilik vujudga keldi. Ammo Xorazm hukmdori kaltabinlik bilan ish tutib, Buxoro atroflari va unga tutash hududlarni talon-toroj qildi. Bundan ranjigan Amir Temur vaziyatni oydinlashtirish uchun Jaloliddin Bahodirni Yusuf Sufiyning oldiga yubordi. Sufiy esa elchini hech qanday javobsiz zindonband qildi. So'ngra Amir Temur yana bir bor chopar yuborib, shu mazmundagi xatni yo'lladi: **"Elchiga o'lim yo'qdir, uning gardanidagi vazifa buyruqni aniq yetkazishdan boshqa hech narsa emasdir. Mening elchimni qo'yib yubor"**.

Bu ham ayni vaziyatni yaxshilamaydi, shunda Amir Temurga Termiz tarafdari yangi pishgan qovun keltirishadi, Amir Temur esa Yusuf Sufiy bilan qarindoshligi borligini, shuning uchun yangi hosildan bir o'zi tanovul qilishi to'g'ri emasligini aytib, qovunni kestirib, uni oltin tovoqqa soldirib, Sufiyga yuboradi, ammo shunda ham Xorazm hukmdori qovunni suvga tashlattiradi, oltin tovoqni esa darvozabonlarga tuhfa qilib yuboradi. Shundan so'ng

Amir Temur oxirgi chora sifatida Xorazmga qo'shin tortishga majbur bo'lgan. Bundan shuni xulosalash mumkinki, sohibqiron kelishmovchiliklarni mumkin qadar bosiqlik va donolik bilan, ayni paytda, harbiy aralashuvsiz yechishga intilgan, jang-u jadal esa oxirgi tanlov bo'lgan.

Ta'kidlash joiz, sohibqiron hozirgi davr diplomatik normalarini o'z boshqaruvida allaqachon qo'llagan edi. Taqqoslash uchun, 1961-yilda qabul qilingan **diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasi** 29-moddasida diplomatik xodimlarning daxlsizligi mustahkamlab qo'yilgan. Ko'rinib turibdiki, Amir Temur saltanatida bu kabi qonun XIV asrda barcha uchun birday ishlagan. Elchilarga bunday munosabatda bo'lish Amir Temurning siyosiy obro'sini xalqaro darajada oshirgan, uning adolati va oqilona siyosatidan darak bergan.

Shuningdek, Amir Temur o'z saltanatida malakali, bilimli va dono shaxslarni ajratib olib, ularga elchilik maqomini bergan. Buyuk sarkarda xalqaro munosabatlar qanchalik murakkab va nozik masala ekanini yaxshi anglab, elchilarning shaxsiy va intellektual sifatlariga katta e'tibor qaratgan. Ularga kiyinishdan tortib, qanday muloqot qilishgacha bo'lgan qoidalar izchil o'rgatilgan. Hattoki uning elchilaridan

biri Muhammad al Keshiy Kastiliya qiroli saroyida muxtor vakil sifatida doimiy faoliyat ko'rsatgan. Amir Temurning tashqi siyosatida Yevropa vektori muhim ahamiyat kasb etganini hisobga olib, Keshiyga juda muhim, ayni paytda mas'uliyatli va sharafli missiya yuklangan. U bir vaqtning o'zida tobora o'sib borayotgan Amir Temur – Yevropa munosabatlarida asosiy shaxs, shuningdek hukmdor vakili sifatida ko'rilgan.

**Sohibqiron o'z yurishlari davomida insonparvarlik g'oyalariga suyanib ish tutgan, shubhasiz bu omil uning xalqaro imijiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.** U biror shahar yoxud qal'ada o'z hukmini o'rnatishdan oldin qarama-qarshi tomon jangchilariga agar qurollarini tashlab, Amir Temur tomonga o'tishsa, ularning jonini asrashini, harbiy mansablar va maosh tayinlashini taklif etgan. Shuningdek, u tinch aholiga ham zarracha ziyon qilishni xohlamagan. Bu kabi tarixiy dalilni sohibqiron armiyasida xizmat qilgan yevropalik sarkarda Shiltberger o'z kundaligida hikoya qiladi.

Sulton Boyazidga qarshi yurish davomida Amir Temur birin-ketin turk shaharlarini egallab kelar ekan, Sivas shahriga yetib keladi. Shahar himoyachilariga yuqoridagi kabi taklifni beradi. Ammo ular buni rad etadi. Ustiga-ustak, shahardagi qariyalar va ayollarning boshlarini tanlaridan judo qilib, Amir Temur askarlari ichiga vahima solish maqsadida shahar devorlariga ilib chiqadi va agar ketishmasa, shahardagi qolgan aholi bilan ham xuddi shunday holat yuz berishini aytadi. Bundan g'azablangan Amir Temur shaharni qanday bo'lmasin, egallashni buyuradi va vazifa bajariladi. Jangdan so'ng dushman sarkardasi Amir Temur oldiga kelib, o'zi va lashkariga omonlik so'raydi, sohibqiron ham ularni o'ldirmaydi, ammo boshqa jazo tayinlaydi. Yuqorida keltirilgan voqea Amir Temur qanchalik oliyjanob va sharafli davlat rahbari bo'lganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, buyuk sarkardaning bu kabi siyosati zamonaviy xalqaro huquqning elementlarida ham uchraydi.

Jumladan, 1949-yilda qabul qilingan **harbiy asirlarga muomalada bo'lish bo'yicha Jeneva konvensiyasida** sohibqironning ushbu siyosatiga o'xshash g'oya mustahkamlab qo'yilgan. **Xususan, unda shunday deyiladi:** *harbiy asirlarga insoniy muomala qilinishi shart, qamoqqa oluvchi mamlakatning har qanday noqonuniy harakati yoxud harakatsizligi natijasida harbiy asirning o'limiga olib kelishi yoki uning sog'lig'ini jiddiy xavf ostiga qo'yishi ta'qiqlanadi va bu konvensiyaning jiddiy buzilishi hisoblanadi.*

Yuqorida ta'kidlangani kabi harbiy asirlarni ixtiyoriy ravishda qo'shin tarkibiga olish, ularga Markaziy Osiyoda shakllangan harbiy san'at va tizimni o'rganish va kelgusida sohibqironning harbiy maktabi ko'lamini kengaytirish imkonini bergan. Bundan tashqari, yangi harbiy xizmatchilar orqali chet mamlakatlar harbiy tajribasi Amir Temur qo'shiniga kirib kelib, an'anaviy jang ta'limotlari bilan integratsiya qilingan.

Shu o'rinda, Amir Temur o'zining bir qator maqsadlari, jumladan o'z tomoniga og'dirish, hududlarni jangsiz egallash, hamkorlikni kengaytirish kabilarni hal qilish uchun elchilar xizmatidan foydalanar ekan, ko'p hollarda bu vazifaga sarkardalarni ham yuborgan. Bunga sabab esa jangda toblangan va turfa yurtlarni ko'rgan sarkardalar muzokara davomida o'zlarining qat'iyiligi, hukmdor va davlatga sodiqligi bilan ajralib turgan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur tashqi siyosati faqatgina jangovar va hujumkor xarakter kasb etmay, diplomatiya, tinch va samarali munosabatlar va gumanitar g'oyalarni ilgari surgan. Sohibqiron bir yurtni egallashdan oldin muzokara va tinch muloqotga yetarlicha o'rin ajratgan, o'z siyosatida oliyjanoblik, rahmdillik va qat'iyati bilan ajralib turgan.

**Xurliman MARATOVA,**  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
katta o'qituvchisi



O'zJOKU 8 yoshda



# HARBIY JURNALISTIKA ILMINING ISTIQBOLI

**Ustozlar haqida o'ylaganda, Mavlono Rumiyning erishilgan aql haqidagi fikri xayoldan o'tadi. Uni alloma uy ichiga oqib kiradigan kichik irmoqqa o'xshatadi. Inson ustozlar yordamida, maktab yordamida bunga erishadi. Jildirab, to'siqlardan oshib o'tib, ichkariga – inson ko'ngli sari borish uchun irmoq ko'p mashaqqatlarga duchor bo'ladi. Ustoz ko'rmasa, irmoq yo'lini o'zgartirishi hech gapmas.**

Men O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida 7 yildan beri faoliyat yuritaman. Irmuqlar o'z yo'lini topishi uchun nima qildim? Balki, yo'lini o'zgartirgan irmuqlarda xatoga, kamchilikka yo'l qo'ygandirman? O'zimga shunday savollar berdim. Taqdirimda katta burilish yasagan bu qutlug' ilm maskani bilan bog'liq faoliyatimga nazar tashlab, savolga javob izlagim keldi.

Maqolalarimdan birida universitet haqida "Harbiy jurnalistika ta'limiga beshik bo'lgan maskan" degan xulosani aytgan ekanman. Bugun bu fikrni yozilgan ko'plab o'quv adabiyotlari, darslik, qo'llanma, monografiya, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, katta va kichik ilmiy tadqiqotlar, yo'lidan dadil borayotgan shogirdlar misolida yanada baralla aytgim keladi. "Domla", "ustoz", "hurmatli polkovnik". 7 yildirki, shu kalomlarni tez-tez eshitaman. Muhimi, bu emas. Gap uni aytayotgan shogirdlardagi sohaga, ilmga muhabbatda. Shundan kuch olaman. Insonga izlayotgan narsasiga qarab, qiymat beriladi, deyishadi. Bugun nafs boshlagan yo'lda o'zini o'tga-cho'g'ga urib, foniydan nimalarnidir izlayotganlar ko'p. Birovlardan xato, nuqson izlayotganlar ko'p. Ilm izlayotgan shogirdlarga qarab, ularning qiymati qancha, deya savol beraman. Javobi qiyin savol. Ilm izlagan o'zini izlaydi, borar manzilga ozuqasini g'amlaydi. Ikki dunyoda saodatga eltuvchi yo'lni izlaydi. Ojizona javobim shu!

**Harbiy jurnalistikaga beshik bo'lgan maskandan uchirma bo'lganlar haqida xushxabarlarni eshitib turaman.** Masalan, harbiy jurnalistika bakalavriat yo'nalishini bitirgan Sayyod Qurbonov, Sherzod Egamberdiyev, Mansur Jabborov, Umid Bo'riyev, Aslam Umurov kabilar Mudofaa vazirligi axborot xizmati tizimida faoliyat yuritmoqda. Vazirlikka qarashli gazeta va jurnal, teleko'rsatuv, saytlarda ijod qilayotgani quvonarli. Egniga harbiy libosni kiyganlari ham talaygina. Abror Poyonov, Sheroz Maxamatov, Aziz Baratov, Oxun Norqulov, Muzaffar Qahramonov Ichki ishlar vazirligining axborot xizmati tizimida o'z yo'lini topgan. Harbiy libos kiyganlari anchagina. Jurnalist sifatida Vatanga fidoyilarcha xizmat qilmoqda.

Askarlikdan to'g'ri O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga kelgan, harbiy jurnalistika ta'limining ilk qaldirg'ochi hisoblangan Yunus Bo'riyev Tashqi ishlar vazirligi "Dunyo" axborot agentligida ijod qilyapti. Umid Qurbonov, Dildora Do'smatova O'zAda, Adham Mirzaolimov, Farangiz Qarshiyeva, Shodiyona Turg'unova, Diyorbek Abdurahmonov kabi shogirdlar MTRKga qarashli telekanallarda jurnalist sifatida toblanmoqda. Qancha-qancha bitiruvchilarimiz saytlarda, turli idoralarning axborot xizmatlarida faoliyat yuritmoqda.

Harbiy jurnalistika yo'nalishining ilk bitiruvchisi Shahribonu Rahmatova xorijdagi nufuzli universitetlardan birida magistratura yo'nalishida tahsil olish harakatida. "Zulfiya" mukofoti sohibasi Umida Sulaymonova harbiy jurnalistika

yo'nalishida magistraturani bitirgan ilk qaldirg'ochlardan. Harbiy jurnalistika bakalavriat ta'limini muvaffaqiyatli tamomlab, amaliyotda toblanib, doktorantura sari dadil borayotgan Nozima Qarshiboyeva, Nafisa Qurbonova, Ilmira Shukrullayeva kabi bitiruvchi magistratlar parvozigga havas qilasan, kishi. Harbiy jurnalistika bakalavriat yo'nalishining ilk bitiruvchisi Ro'ziqul Omonqulov bugun qadrdon universitet bag'rida. Dekan o'rinbosari lavozimida faoliyat olib boryapti. Yaqinda magistrlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Esimga kelgan ayrim bitiruvchilarimiz haqida so'z yuritdim. "Universitet taqdirimda" deganda, avvalo, mehr bilan "domla", "ustoz" degan, o'z yo'lini topib olgan "irmuqlar" xayolimga kelgani uchun ularni sanab o'tdim. Ba'zi hamkasblar "Yosh ko'rinasiz, domla" deyishadi. Ilmga chanqoq shogirdlar bizni qaritmaydi, degim keladi ularga.

Gapni birdaniga shogirdlardan boshlabman. Aslida ularning zamirida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko'zlagan siyosatiga yotadi. Davlat rahbari tashabbusi bilan 2018-yilda tashkil etilgan O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti bir yil o'tib, harbiy jurnalistika ta'limi yo'nalishida ham kadrlar tayyorlay boshlagandi. Bu ezigu ishning tamal toshi ham davlatimiz rahbari tomonidan qo'yilgandi. **2018-yil 28-noyabrda Qurolli Kuchlar akademiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishida Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida harbiy jurnalistika yo'nalishi ochilishi to'g'risida qarorga kelingandi.** Jahonda qarama-qarshiliklar, harbiy nizo va to'qnashuvlar ortib, dunyo "asabiy zo'riqish" davrini boshdan kechirayotgan, turli ekstremal holatlar sodir bo'layotgan bugungi davrda O'zbekiston harbiy jurnalistika shakllanishiga e'tibor qaratib, qanchalar oqilona, to'g'ri yo'lni tanlagani yana bir bor isbotini topmoqda.

Bu balandparvoz gaplar emas. Masalan, bo'lajak harbiy jurnalistlar "Axborot urushida jurnalist faoliyati", "Ziddiyatli vaziyatlarda jurnalist faoliyati xavfsizligi", "Harbiy jurnalistikada axborot xavfsizligi", "Ekstremal jurnalistika", "Harbiy jurnalistikada stringerlik", "Harbiy jurnalistikada psixologiya", "Xalqaro va gumanitar huquq", "Harbiy jurnalistikada ixtisoslashuv", "Harbiy jurnalistikada konvergensiya", "Harbiy jurnalist ijod maktabi", "Harbiy jurnalistikada boshlovchi imiji", "Harbiy

jurnalistikaning rivojlanish tamoyillari", "Harbiy jurnalistikaning ilmiy-nazariy asoslari", "Mudofaa siyosatida harbiy OAVning o'rni", "Harbiy topografiya", "Harbiy taktika", "Saf tayyorgarligi", "O'q otish tayyorgarligi" kabi majburiy hamda mutaxassislik tanlov fanlaridan saboq olishadi. Ushbu fanlarni o'zlashtirish ziddiyatli vaziyatlarda, qurolli mojaralarda jurnalist faoliyati bo'yicha nazariy tushunchalar hosil qilib, talabalarda harbiy nizo, to'qnashuv, favqulodda vaziyatlar, avariya sharoitida material tayyorlash ko'nikmasini hosil qilishga yordam beradi. Sohaga ixtisoslashuvini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyundagi 294-sonli qaroriga muvofiq, Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentida O'zJOKUning "Harbiy jurnalistika bo'limi" tashkil etilgandi. Bo'lim harbiy jurnalistika bakalavriat, magistratura yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning nazariy va amaliy bilimlarni uyg'un holda egallashlarida ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Yangi-yangi ilmiy izlanishlar, tadqiqotlarga, sohaga yanada ixtisoslashuvga xizmat qilyapti.

**Mudofaa vazirligining O'zMU huzuridagi harbiy tayyorgarlik markazida yetuk mutaxassislar tomonidan O'zJOKU talabalarga harbiy topografiya, Umumharbiy nizomlar, taktik tayyorgarlik, umumharbiy tayyorgarliklardan ta'lim berilishi yo'lga qo'yilgani sohaga ixtisoslashuvda muhim ahamiyat kasb etmoqda.** Talabalar zaxiradagi leytenant unvoniga ega bo'lib, kuch tuzilmalari axborot tizimida faoliyat yuritishida qo'shimcha imkonga ega bo'lishyapti.

"Universitet – taqdirimda" degan savolga qisqa vaqt ichida tayyorlangan harbiy jurnalistika yo'nalishi bo'yicha darslik, o'quv hamda uslubiy qo'llanmalarim bilan javob bera olaman. "Harbiy jurnalistikada yangiliklar va reportyorlik mahorati" nomli darslik, "Harbiy jurnalistika asoslari", "Ziddiyatli vaziyatlarda jurnalist faoliyati xavfsizligi", "Harbiy jurnalistikada ixtisoslashuv", "Mudofaa siyosatida harbiy OAVning o'rni" deb nomlangan o'quv qo'llanmasi, "O'zbekistonda harbiy jurnalistikaning shakllanish va rivojlanish tamoyillari" nomli monografiya, "O'zbekistonning Ikkinchi jahon urushi davri harbiy jurnalistikasi antologiyasi" Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi hamda universitet ilmiy-uslubiy kengashlaridan tasdiqdan o'tib, chop etildi. Ayni paytda "Harbiy jurnalistika so'zligi" o'quv-uslubiy qo'llanmasi va "Harbiy jurnalistika taraqqiyotiga kommunikativ hodisalarning

ta'sir etish omillari" nomli monografiya nashrga berilgan.

**Harbiy jurnalistika sohasida ilmiy tadqiqotlar borasidagi ishlar izchil yo'lga qo'yilgani umrimning "Universitet – mening taqdirimda" degan sahifasida oltin harflarda bitilgan.** 2021-yilda "O'zbekistonda harbiy jurnalistikaning shakllanish va rivojlanish tamoyillari" mavzusida dissertatsiyani himoya qildim, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga erishdim. O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti **mustaqil tadqiqotchisi, "Vatanparvar" birlashgan tahririyati muxbiri katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov "O'zbekistonda harbiy jurnalistikada axborot integratsiyasining nazariy va amaliy xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qilgani soha ilmiga yana bir katta ulush sifatida qo'shildi.** Ortda qolgan 2025-yilda kamina "Harbiy jurnalistika taraqqiyotiga kommunikativ hodisalarning ta'sir etish omillari" mavzusida filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qildim. O'zJOKU mustaqil izlanuvchilari orasida harbiy jurnalistika ilmi borasida tadqiqotlar davom etayotgani kishini yanada quvontiradi. Bunday tadqiqotlarni muvofiqlashtirishda 2021–2022-o'quv yilidan boshlab, universitetda tashkil etilgan Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasining beqiyos o'rni bor. Harbiy jurnalistika ilmi rivoji yo'lidagi izchil tadqiqotlar soha istiqbolidan darak beradi.

**Yo'lini topayotgan irmuqlar... Memimcha, sanab o'tilganlar bu savolga javob bo'la oladi.** Bunda ustozlar o'rni haqida o'zingiz xulosa chiqarib olasiz. Men irmuqlar yo'lida adashmasligi uchun, avvalo, davlatimiz rahbariyatining ta'limga qaratilgan yuksak e'tibori muhim ekanini ko'rman. O'zJOKU tashkil etilganida oldiga dunyoda sodir bo'layotgan voqealarga tez va mos ravishda munosabat bildirish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik qayta o'zgarishlar haqida respublika aholisini, jahon hamjamiyatini o'z vaqtida va xolisona xabardor qilish tizimini takomillashtirish, jurnalistikaning o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu boradagi ilmiy tadqiqot, ijodiy ishlar samaradorligini ta'minlash kabi ustuvor maqsadlar qo'yilgandi. Niyatning, umidning, maqsadning ulug'ligini qarang!

Shogirdlarni, harbiy jurnalistika ilmini irmoq, dedik. Tashkil etilganining 8 yilligini nishonlayotgan O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Prezidentimizning, xalqimizning umidlarini, niyatlarini ro'yobga chiqarishda o'z yo'lini topib olgan ummonga, ilm ummoniga aylanib borayotganidan hayajonlanmay bo'larkanmi?!

**Alijon SAFAROV,**  
O'zJOKU Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, rezervdagi polkovnik



Raqamli islohot

## MUNOSIB KADRLARNI SARALASHDA O'ZARO HAMKORLIK

Mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ayniqsa kadrlar siyosatida ochiqlik va adolatni ta'minlash ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bu jarayon mudofaa sohasida ham izchil davom ettirilib, munosib kadrlarni saralash tizimi zamonaviy yondashuvlar asosida yangi bosqichga olib chiqilmoqda.



Ana shu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Prezident huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi mas'ullari o'rtasida raqamlashtirilgan kadrlarni saralash tizimi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va istiqbolli rejalar yuzasidan hamkorlik uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda Mudofaa vazirligida kadrlar boshqaruvi tizimi tubdan isloh qilinib, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talab va taklifni o'rgangan holda sohani sifatli kadrlar bilan ta'minlash, kadrlarni o'z o'rniga qo'yish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Harbiy kadrlar siyosati, xususan kadrlarni saralab olish va ishga qabul qilishda eng xolis va shaffof metodlardan foydalanish, istiqbolli kadrlar zaxirasini shakllantirib borish, bu jarayonda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada 2025-yilning 17-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi o'rtasida o'zaro hamkorlik va Anglashuv memorandumini imzolangan edi.

**Memorandum doirasida agentlik mutaxassislar bilan hamkorlikda "Kadrlar zaxirasi", "Samaradorlik - KPI" va "QK xizmatchilari va ishchilari"**



### platformalari yaratish ishlari amalga oshirilmoqda.

Agentlikning Rahbar kadrlarni baholash markazida nomenklatura lavozimiga nomzod ofitserlarning kompetensiyalari va shaxsiy-professional rivojlanish ko'nikmalarini aniqlash bo'yicha test sinovlarini qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, **ARGOS.test.uz platformasi** orqali Mudofaa vazirligi qo'shinlariga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga, harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish istagini bildirgan **2025-yilda 19 ming, joriy yilda esa 20 ming nafardan ortiq** nomzoddan psixologik o'rganish test sinovlari kompyuter texnologiyalari orqali qabul qilindi.

Mudofaa vazirligi va Boshqaruv samaradorligi agentligi mas'ullari o'rtasida o'tkazilgan uchrashuvda nomzodlardan psixologik test sinovlarini ARGOS.test.uz platformasi orqali qabul qilish, munosib kadrlar zaxirasini shakllantirish, soha samaradorligini oshirishda eng so'nggi jahon standartlari asosidagi zamonaviy elektron tizim hamda sun'iy intellektdan keng foydalanish bo'yicha hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

Ushbu o'zaro hamkorlik Mudofaa vazirligi qo'shinlarini yuksak intellektual salohiyatga ega, psixologik barqaror kadrlar bilan ta'minlash orqali mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada yuksaltirishga ulkan hissa qo'shadi.



## YANGI OFITSERLAR SAFGA QO'SHILDI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ayniqsa mudofaa sohasida kadrlar salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan sa'y-harakatlar izchil natija bermoqda. Xususan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida Qurolli Kuchlar safi zamonaviy bilim va tafakkurga ega, yuksak mas'uliyatni his etuvchi ofitserlar bilan bosqichma-bosqich mustahkamlanib bermoqda.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Toshkent harbiy okrugi fakultetida ofitserlik lavozimlariga tayinlangan oliy ma'lumotli serjantlar uchun 45 kunlik maxsus o'quv kursi tashkil etildi. Ushbu kurs orqali ishtirokchilarga boshlang'ich "leytenant" harbiy unvonini olish imkoniyati yaratildi.

O'quv jarayoni davomida tinglovchilarning nazariy



serjantlarga "leytenant" harbiy unvonini topshirildi. Tadbirida ishtirok etgan Mudofaa vazirligi Kadrlar bosh boshqarmasi vakillari zamonaviy ofitser nafaqat bilimli, balki vatanparvar, keng dunyoqarashli va har qanday tahdidga munosib javob bera oladigan mutaxassis bo'lishi zarurligini aytib o'tdi.

Fakultet boshlig'i polkovnik R. Ahmadaliyev esa o'z nutqida ofitser uchun eng muhim fazilatlaridan biri - murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va shaxsiy namuna ko'rsatish ekanini qayd etdi. Uning ta'kidlashicha, har bir ofitser bo'ysunuvchilarni yuksak ruh va mas'uliyat bilan xizmat qilishga chorlay olishi lozim.

Tadbirida so'zga chiqqan yosh leytenantlar bildirilgan ishonchni oqlashga tayyor ekanliklarini, olingan bilim va ko'nikmalarni amalda samarali qo'llashga intilishlarini ta'kidladi.


bilimlari va amaliy ko'nikmalarini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, bo'linmalarni boshqarish, shaxsiy tarkib bilan ishlash, liderlik, taktika va otish tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazildi. Shuningdek, zamonaviy yo'nalishlar - uchuvchisiz uchish tizimlari, sun'iy intellekt asoslari va kiberxavfsizlik bo'yicha ham bilimlar berildi.

Kurs yakunida o'tkazilgan tantanali tadbirida bir guruh



Polkovnik Otabek SHOMAHMUDOV,  
Kadrlar bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari - boshqarma boshlig'i

## Armiya va yoshlar



## FIDOYILAR IZIDAN YANGI AVLOD QADAMLARI

Bugun mamlakatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida Qurolli Kuchlarimiz tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarda "Xalq va armiya yakdil" shiori ostida yoshlarni ona yurtga sadoqat, milliy g'urur va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida fizimli ishlar olib borilmoqda.

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi tasarrufidagi qo'shilma va harbiy qismlarga respublika bo'ylab **150 ta** ta'lim muassasasi birlashtirildi. Ushbu maktablarda **35 ta** Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi nomidagi tematik sinf, **49 ta** chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik sinfi, **15 ta** vatanparvarlik sinfi, **40 ta** vatanparvarlik burchagi, **13 ta** yagona to'siqlar yo'lagi hamda **10 ta** saf maydoni tashkil etildi. Jami **162 ta** obyekt zamonaviy targ'ibot vositalari bilan jihozlanib, foydalanishga topshirildi.

Shu bilan birga, mazkur ta'lim muassasalarida tajribali va namunali harbiy xizmatchilar tomonidan "Jasorat", "Mustaqillik" va "Mardlik" darslari muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Jumladan, o'tgan davr mobaynida yoshlar ishtirokida **12 500 marotaba** turli tadbir tashkil etilib, **36 000 mingdan** ortiq o'quvchi-yosh qamrab olindi.

G'ijduvon tumanidagi 2-maktabda ham qisqa muddat ichida keng ko'lamli qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Maktab hududi obodonlashtirilib, binolar zamonaviy harbiy-vatanparvarlik ruhidagi targ'ibot vositalari bilan

jihozlandi. Xususan, saf maydoni, bolalar uchun sport shaharchasi barpo etilib, zarur sport anjomlari bilan ta'minlandi.

Bundan tashqari, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik sinfi negizida Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi tematik sinflari, vatanparvarlik sinfi, maktab tarixi muzeyi, faollar zali hamda "Yangi O'zbekiston me'mori" burchaklarini o'z ichiga olgan zamonaviy ma'rifat markazi tashkil etildi. Mazkur markaz yoshlarda nafaqat harbiy-vatanparvarlik ruhini shakllantirish, balki ularni yurt tarixi va buyuk ajdodlar merosi bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qiladi.

Aynan shu ma'rifiy muhit va yaratilgan imkoniyatlar doirasida o'tkazilgan tadbir davomida mazkur maktabdan yetishib chiqqan fidoi insonlar, jamoat arboblari va xalq qahramonlari haqida alohida to'xtalib o'tildi. Ayniqsa, ushbu ta'lim dargohida tahsil olib, o'z hayotini yurt va xalq xizmatiga bag'ishlagan davlat va jamoat arbobi Qizbibi Husenovaning 100 yoshli yubileyining o'tkazilgani yana bir quvonchli voqea bo'ldi.

Bugun mazkur maktabda yaratilayotgan zamonaviy sharoitlar, barpo etilgan harbiy-



vatanparvarlik obyektlari va ma'rifat maskanlari aynan ana shunday fidoi insonlar merosining davomi ekanini anglash qiyin emas. Qizbibi Husenova kabi yurtga sadoqat bilan xizmat qilgan insonlarning hayot yo'li bugungi yoshlar uchun nafaqat ibrat, balki ularni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi ma'naviy kuch manbaidir.

Zotan, maktabda yangi ochilgan obyektlar va tashkil etilgan sharoitlar yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, burchga sadoqat va yuksak mas'uliyat

tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qilish bilan birga, o'z navbatida, kelajakda Qizbibi Husenova kabi fidoi, matonatli va yurtiga sadoqatli insonlar safini yanada kengaytirishga zamin yaratadi. Shu ma'noda, mazkur tadbir nafaqat bir maktab hayotidagi muhim voqea, balki yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhini yuksaltirish yo'lidagi navbatdagi muhim qadam sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

**TOQQQ matbuot xizmati**



# YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI —

## IMKONIYATLAR MAKTABI

**Milliy armiyamizda olib borilayotgan islohotlar nafaqat mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlashga, balki yosh avlodning hayotda o'z o'rnini topishiga ham xizmat qilmoqda. Zero bugungi harbiy xizmat bu faqatgina saf tortish yoki jangovar tayyorgarlik emas, balki yuksak ma'naviyat, zamonaviy kasb va mustahkam hayot maktabidir.**



Harbiy okrug ta'mirlash ustaxonasida tajribali mutaxassislar tomonidan olib borilayotgan amaliy mashg'ulotlar ham yosh harbiy xizmatchilar uchun katta tajriba maktabi bo'lyapti. Bu yerda askarlar texnik vositalarni ta'mirlash, zamonaviy uskunalar bilan ishlash hamda murakkab texnologik jarayonlarni o'zlashtirish orqali haqiqiy kasb egasiga aylanmoqda. Bugungi armiyamiz yoshlarni intizom, mardlik, jasorat va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan birga, ularning kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratayotgani ham ayni haqiqat. Chunki harbiy xizmat davomida orttirilgan bilim, tajriba va hayotiy saboq har bir yigitning keyingi faoliyatida muhim o'rin tutadi.

### TAVSIYANOMA – YANGI MARRALAR KALITI

**Darhaqiqat, mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.**

Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligi yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar oilalariga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik xalqimizning yuksak ehtiromi ifodasi, desak, adashmagan bo'lamiz.

Ana shunday ezgu maqsadlar yo'lida Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar farzandlariga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanomalarni topshirish

Ayniqsa, "Bir askar – bir kasb" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan tizimli ishlar yoshlarning ertangi kuniga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlamoqda. Muddatli harbiy xizmatchilar xizmat davomida turli zamonaviy kasb-hunarlarini egallab, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lyapti. Axborot texnologiyalari, texnik mutaxassisliklar, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari askarlar uchun katta hayotiy tajriba vazifasini o'tayapti.

Yana bir gap. Bugungi globallashtirish davrida xorijiy tillarni bilish har bir yosh uchun muhim ustunlik sanaladi. Shu bois harbiy qismlarda ingliz tili va boshqa xorijiy tillarni o'qitish jarayonlari zamonaviy yondashuv asosida yo'lga qo'yilgan. Til o'rganayotgan muddatli harbiy xizmatchilar nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtirmoqda, balki dunyoqarashi, tafakkuri va intellektual salohiyatini ham kengaytirayapti. Bu esa ularning kelgusida malakali mutaxassis bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi.

Yoshlarni oliy ta'lim muassasalariga puxta tayyorlash maqsadida qo'shimcha dars mashg'ulotlari ham muntazam tashkil etilayotgani e'tiborga molik. Harbiy xizmatni o'tayotgan yigitlar fanlarni chuqur o'rganib, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirmoqda. Bu esa ularning kelajakdagi ta'lim va kasbiy faoliyatiga mustahkam zamin yaratadi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugning Nukus garnizonidagi harbiy qismlarda ham bu boradagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, yosh askarlarni xorijiy tillar hamda IT texnologiyalariga o'qitish jarayonlarida zamonaviy o'quv usullari, innovatsion dasturlar va interaktiv mashg'ulotlardan samarali foydalanishlariga ahamiyat qaratilmoqda. Eng muhimi, har bir askarning qiziqishi, iqtidori va intilishiga alohida e'tibor berilyapti, ularning salohiyatini yuzaga chiqarishga keng imkoniyat yaratilmoqda.



marosimi bo'lib o'tdi. Mazkur tadbir yoshlarni ilm-fan sari ruhlantirish, ularning kelajakdagi ulkan marralar sari dadil qadam tashlashiga kuchli motivatsiya bag'ishladi.

Ko'tarinki ruhda tashkil etilgan tantanali marosimda okrug qo'mondoni, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Tadbir davomida harbiy xizmatchilar farzandlariga oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun beriladigan imtiyozli tavsiyanomalar

Zero ilimli avlod – millat tayanchi, davlatning ertangi kuni va taraqqiyotining eng ishonchli kafolati.

Tadbir davomida yoshlarga davlat imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tish, kelajakda xalq va Vatanga sadoqat bilan xizmat qiladigan barkamol insonlar bo'lib yetishish tilaklari bildirildi.



tantanali ravishda topshirildi. Bu esa yoshlar qalbida cheksiz faxr, mas'uliyat va Vatanga muhabbat tuyg'ularini yanada mustahkamladi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar tomonidan bugungi kunda mamlakat taraqqiyoti, yurt ravnaqi va xalq farovonligi, avvalo bilimli, salohiyatli va vatanparvar yoshlar qo'lida ekani alohida ta'kidlandi.

Samimiy va tantanavor ruhda o'tgan ushbu marosim yoshlar qalbida yurtga daxldorlik, fidoyilik va ulkan mas'uliyat hissini yanada kuchaytirdi.

**Katta leytenant  
Ahadjon JABBOROV,  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati boshlig'i**



Vatan ichidagi "Vatan"



(Davomi. Boshi o'tgan sonda).

Nemis fashistlari sovet jangchilari orasidan 101 ta o'zbekni ajratib oldi. Ularni uzoq ochlikda saqlab, so'ngra oldilariga bir dona nonni otib yubordi. Nemislarning maqsadi: och askarlar non uchun bir-birini yanchib tashlayotgan lahzalarni tasvirga olib, dunyoga ko'rsatish edi.

Suratga olish uchun kameralar tayyor turardi.

Ammo ular kutgan sharmandali holat ro'y bermadi. O'zbek jangchilari non atrofida aylana bo'lib o'tirishdi. Yoshi kattarog'i nonni tirnoqdek-tirnoqdek qilib, barchaga bo'lib berdi. Oxirida qo'llari bilan yuzlarini silab qo'yishdi.

Bu voqea 1941-yil 27-sentabrda Smolensk ostonasidagi jangda mag'lub bo'lgan 865 nafar sovet jangchisini "Amersfort" konslageriga olib kelib, orasidan 101 o'zbek jangchisini ajratib olganda bo'lib o'tgan.

Golland jurnalisti Remko Reydingning "Amersfort" konslageri va o'zbek mard jangchilari haqida 20 yil to'plagan materiallaridan.

### 101 HUNAR. 101 XAZINA

Abdurahimning katta bobosini hamma Abdukarim eshon deb hurmat qilar edi. Abdukarim eshon Buxorodagi Mir Arab madrasasida o'qib keldi. U masjidida domla bo'lib, din yo'lida xizmat qilish bilan birga kosibchilik ustaxonasini ham yurgizar edi.

Eshon otaning orzusi nabirasi Abdurahimni katta o'qishlarda o'qitib, gidrotexnik qilish edi. U havas qilardi: nabirasi gidrotexnik bo'lib qaytsayu, Farg'onaning suv chiqmagan yerlariga ham suv chiqarib, bog'-u bo'ston qilsa. Abdukarim eshon nabirasining kelajigida Ahmad al-Farg'oniyning tafakkur uchqunlarini ko'rar edi. Nabirasi Abdurahim

boshqalarga aslo o'xshamasdi. U diniy va dunyoviy bilimlarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtira boshladi. Bobosidan diniy bilimlarni o'rgangan bo'lsa, Toshkentdagi politexnika institutida fizika-matematikadan dars beruvchi o'qituvchisi Rabbimqul Norqulovdan gidrotexnika sirlarini o'rgandi. Rabbimqul domlasi uning uchun donolar donosi edi. Abdurahim domlasining uyiga ham goh-goh borib turar, kelinoyining ismi Muhtaramxon bo'lib, qaysidir maktabda dars berishini bilar edi.

Kuz kunlarining birida domla institutga kelolmay qoldi. Abdurahim ularning uyiga bordi. Domla shamollab qolgani tufayli ovozi zo'rg'a chiqardi. Aksiga olib, kelinoyi ham betob ekan. Abdurahim domlani farzandi yo'qligini eshitgandi. Ularning ikkalovi ham betobligini ko'rgach, biror nima pishirish uchun oshxonaga kirdi. Komolon mahallasining kichkinagina hovlisida, kichkinagina oshxona. Chinnidek oshxonada bir yashikda sholg'om, piyoz, bir idishda beshta kartoshka va yog' turganini ko'rdi. Abdurahim avval o'choqqa olov yoqib, qumg'onda choy qaynatib, domla va kelinoyiga damlab berdi. So'ngra ularga tuxumli sho'rva tayyorladi. O'choqqa o'tin solayotganida darvoza sekin ochilib, bir qiz "Muhtaram opa, Muhtaram opa" deb chaqira boshladi. Abdurahim borib, darvozani kattaroq ochdi va "Keling, Muhtaram opa ham, domla ham betob ekanlar. Men domlani shogirdiman, ularga sho'rva pishirayotgan edim", dedi. "Men Muhtaram opaning shogirdiman, ularga sut va non olib keluvdim", dedi qiz va ichkariga kirdi. Qizni ko'rishi bilan kelinoyi "Ha, Manzuraxon senmiding? Kel, qizim", dedi. Manzura sutni qaynatib, issiq matoga o'rab kelgan ekan, darhol ikki kosaga quyib, domla va kelinoyini ichishga undadi. Ular sutni ichib bo'lgach, qiz

chaqqonlik bilan uy ichidan changlarni artib chiqdi. Xonani yengil shamollatib, hammayoqqa isiriq tutatdi. Bu orada mening tuxumli sho'rvamdan tatib ko'rib, ozroq tuz qo'shdi va tezda oshxonadan chiqib ketdi. U o'zini shunday tutdiki, go'yo hovli ichkarisiga kimgach, meni ko'rmagandek yurardi. U oshxonadan domlalar o'tirgan xonaga kirdi-yu, bir nimalarni gaplashib, darvozadan chiqib ketdi. U ketgach, men domladan "Bu qiz kim? U nima ish qiladi? Nega darrov ketib qoldi?" deb so'rashga iymandim. U haqda bilgan ma'lumotim: ismi Manzura ekani xolos. Tushlikda men tuxum sho'rvani azizlarimga suzib berdim. Ularning qistovi bilan o'zim ham yarim kosa sho'rva ichdim. Kechqurun ichishlari uchun sho'rvadan qozonda qoldirdim. Ular bilan xayrlashayotganimda haligi Manzura ismli qiz o'zi bilan bir rus do'xtirni boshlab keldi. Meni hayratga solgani qizning rus do'xtiri bilan sof ruschada gaplashgani bo'ldi. Xullas domlam, kelinoyi, Manzura va vrach rus tilida nihoyatda muloyim ovozda uzoq gaplashishdi. Do'xtir ularning issig'ini o'lchayotganda, yurak urishi, qon bosimini tekshirayotganda ham tashqariga chiqib ketmadim. Ularga ukol boshlayotganda chiqib turdim. Do'xtir bir nechta tabletkalar dorilarni qoldirib, nimalarnidir tayinlab, haligi qiz ham do'xtir bilan chiqib ketar ekan, "Sizdan iltimos, uch kun ularning oldidan ketmang, undan keyin o'zim kelaman, uch kun tungi navbatchilikda turaman", dedi. Men rozi bo'ldim. O'qishimga borib, uch kunga ruxsat olib keldim. Keyin bilsam, Manzura Tibbiyot institutining oxirgi kursida o'qiyotgan ekan. U o'qishga ketayotib, tong saharda domlanikiga kirib, ukol qilib chiqib ketardi. U qushdek uchib yurar, quyoshdek hammaga nur, harorat ulashib yurardi. U bir dasta atirguldek atrofga ifor taratardi.

Domlani esa quvvati yo'q edi. Domla bergan pulni tiyin-tiyinigacha avaylab, dorixonaga, bozorga chiqib kelardim. Shu orada men domlani xonadonida umr bo'yi orzu qilgan kitoblarni o'qishga muyassar bo'ldim. Ularning uyidagi kutubxonada o'sha payt uchun narxi qimmat kitoblar bor edi, ammo bu ziyolilarning kiyimlari juda yupun edi. Uchinchi kuni ancha tuzalib qolgan kelinoyi domlamning tufisini artayotganini ko'rib qoldim. Darhol kelinoyining qo'lidan tufini olib, "Men artib, moylab beraman", dedim-u, tufining ahvolini ko'rib, qotib qoldim. Necha yildan buyon kiyilayotgan bu tufining tagi yedirilib, yamoqlari ham ko'chib, uchi ochilib yotardi. Domla bu tufini qanday kiyib yuribdi ekan? Tufining yirtig'ini ko'rib qolganimdan xijolat bo'lib turgan kelinoyiga qarab, "Mening otam eng zo'r kosib, men ham kosibman. Domlamga deb, tufi tikib kelgandim, hozir borib, qarindoshimiznikidan olib kelaman" deb chiqib ketdim. Domlani ayoli ortimdan "hay-hay"laganicha qoldi. Dadam "Pulga zoriqsang, sotib ishlatarsan" deb yangi tikkan tufilaridan birini berib yuborgan edi. Domlani tufisini ushlab ko'rganimda aniq bildim, o'lcham to'g'ri keladi. Qarindoshimizning uyidan domlani uyigacha yugurib borib, yugurib keldim. Nafasim tiqilgudek bo'lib, domlani qoshida turarkanman, "Domla, biz kosiblar oilasimiz. Sizga mana shu tufini ilindik. Aybga buyurmasangiz, ushbu sovg'ani qabul qiling. Yozgi ta'tilda Farg'onaga borsangiz, boshimiz osmonga yetadi. Kosibligimga ishonmasangiz, ko'z o'ngingizda sizga mahsi tikib beraman", dedim. "Ishonaman, ishonaman, ammo tufini pulini qarzga, deb qabul qilaman", dedi domlam. Men mulzam bo'lib qoldim. Men domlamni xursand qilolmadim,

xijolatlikdan chiqara olmadim. So'zga no'noqman. Domlamni noqulay ahvolga qoldirganim uchun yig'lab yubordim. "Sizga sovg'ani odamga o'xshab topshirolmadim. Siz mening ojiz tuyg'ularimga nur bag'ishladingiz. Bu xizmatlaringizning qarzi bo'yimda. Kitoblarga oshno etdingiz, o'z o'g'lingizdek qabul qildingiz. Sizdan iltimos, qarz so'zi o'rtamizda turmasin!" deb yig'lab yubordim. Ahvolimni ko'rib, domla "Mayli, mayli, olib kel, kiyib ko'rayin-chi", dedi. Tufli domlam uchun tikilgandek edi. To'rtinchi kuni darsga ketdim. Darsdan so'ng xabar olgani kelsam, domlam deraza oldida gazeta o'qib o'tiribdi. Hali sovuqning zahri ko'tarilmagani uchun kelinoyi pechkaga o't qalabdi. Domlam bilan salomlashgach, ertaga institutga borishini eshitib, boshim osmonga yetdi. Tashqarida kelinoyim bilan Manzura kir yuvayotgan ekan. "Ruxsat bersangiz, kelinoyimni ichkariga kirgazib yuborsam, hali yaxshi tuzalmaganlar, Manzuraga o'zim qarashib yuboraman", dedim domlamga. "Baraka top, o'zimning ham ichim achishib turuvdi", dedi domlam. Kelinoyini ichkariga kirgazib yubordim. O'choqqa o't qalab, suvni isitib turdim. Og'ir kirlarni suvini siqib berib, dorga osishib yubordim. "Nasib bo'lsa, siz katta do'xtir bo'lar ekansiz-da", dedim Manzuraga. "Ha, nasib, siz kim bo'lasiz?" dedi. "Gidrotexnik suv xo'jaligi, suv uzatish tarmoqlari, xullas suv bo'yicha", dedim.

– Suv aylanib yurar ekan, o'zi bilan yana nimalarni olib aylanadi?

– Suv juda qudratli kuch, hamma narsani olib aylanishi mumkin?

– Masalan, nimani?

– Masalan, oyni.

– Oyni olib tusholmaydi. Oyni-ya?

– Ha, oyni olib tushib, yerga odamlar orasiga qo'ygan. Uning ismi Manzura bo'lib, qarshimda turibdi. Siz Fuzuliyning g'azallaridagi moh – oysiz.

– Bu turishda siz gidrotexnik emas, Gulxaniydek o't yoquvchi shoir bo'lib yetishasiz-u.

– Afsuski, shoirlik yaratgan tomonidan menga berilmagan. Bo'lsa, shu paytgacha bilinardi.

– Menga Fuzuliyning kitobini berib turolasizmi?

– Sizga kitobni sovg'a qilaman.

O'sha kechasi Manzurani ko'chasining boshigacha kuzatib qo'yish baxtiga muyassar bo'ldim. U yurgan yo'lini to'lin oydek yoritib borar edi.

Domlam institutga qaytdi. Bizda bitirish uchun davlat imtihonlari

boshlanib ketdi. Men Manzuraga bermoqchi bo'lgan kitobni olib, domlanikiga borsam, kelinoyi "Manzura ham bitirish imtihonini topshirmoqda. Kelib qolsa, kitobingizni berib qo'yaman", deya kitobni olib qoldi. Oldindan rahmat aytdim-u, institutga qaytdim.

Iyun oyining 22-sanasida urush boshlandi. Bizni, hammamizni uy-uyimizga jo'natishdi. Farg'onaga ketish oldidan xayrlashish uchun domlamnikiga keldim. "Manzura kelib, kitobingizni olib ketdi. Qarang, u she'r yozar ekan. She'r daftarini tashlab ketdi", dedi. Daftar hoshiyasiga "Manzuraning dil daftar. 1941-yil, iyun", deb yozilgan edi.

Ertasi kuni Manzurani topish uchun Tibbiyot institutiga bordim. Institut emas, arining uyasi deysiz. Kimdan so'ramayin, "Bitiruvchilar birinchi bo'lib urushga jo'natildi", degan javobni oldim. Farg'onaga qaytib, men ham urushga ketdim. Men uning she'r daftarini yonimda olib yurdim. Onamning duolari qatorida, bu daftar bir toza qalb tumoridek meni olovlardan omon olib chiqdi.

Ha, men hali qo'lidan ham ushlaganim o'sha dildorni sevib qolgan edim. U muloyim boquvchi ko'zlari, tiniq ovozi, o'tkir aql-u farosati, she'rlari bilan qalbimni egallab bo'lgan edi. Men uning yozuvlarini har doim ko'zimga surtib o'qir va zavqlanar, quvvat olar edim. Men uning she'rlari bilan kuchli edim. Ota-onamning iltijolari hamda olamdagi eng shirin qizning shirin nomalari mening yonimda turadi-yu, kuchli bo'lmaymanmi?

\*\*\*  
Mashg'ulotlar tugab, biz Polshaga jo'natildik.

1941-yilning noyabr oyi edi. Ustimizdan nemis samolyotlari bomba tashlab o'tdi. Tun yarmida poyezdimiz to'xtab qoldi. Ko'z o'ngimizda haqiqiy do'zax alanganlar edi. Bizdan oldingi poyezdda bomba tushib, alanga olib, yonib yotar edi. Kun yorishganda oxirgi vagonni aytmasa, poyezd yonib kulga aylanib bo'lgandi. Yarmi yongan vagonda odamlar yarador bo'lib qolgan bo'lsa, olib tushishga yordamlashish uchun tezlikda vagonga ko'tarildik. Jarohatlangan odamlarni ko'tarib tushira boshladik. Biz vagondan kuygan rus ayolini olib tushdik. U oq xalatda, vrach ekan. Pastga tushirib, suv ichgandan so'ng u ruschalab "Манзуру не видели? Врачику узбечку не видели?" deb so'ray boshladi.

Men uning ustidan qora qurum bo'lib ketgan oq xalatini yechib, yordam qilib, o'z bilganimcha ruschalab: "Узбекча, врач Манзуру знаете? U ruschalab aytganlarini aniq tushundim. U so'rayotgan Manzura, mening Manzuram edi. Poyezdga bomba tushmasdan, uni oldingi

vagonga bir askarga yordam berish uchun olib o'tishgan ekan. Miyamga kelgan sovuq fikrdan dahshatga tushib, tutab yotgan oldingi vagonlar tomon chopib ketdim. Qora tutun, cho'g'dan boshqa narsa yo'q, atrofqa qarab: Manzuram! Manzuram! – deya, baqirib, uni chaqirib devonadek yurdim. Endi u haqdagi ma'lumotni olish uchun yana rus vrach ayoli tomon yugurdim. "Sen Manzurani kimisan? U yaxshi ko'rgan yigitim gidrotexnik degan edi", dedi. Men bu g'amgin ko'zli ayolni quchoqlab, yig'lab yubordim. "Men o'sha baxtiqaro gidrotexnikman", dedim.

Ayolning yonida ikkita vrachlar olib yuradigan sumkacha turardi. Sumkachalardan biri Manzuramniki ekan. Uning ichidagi hujjatlari bilan birga men bergan Fuzuliyning kitobi turardi. Kitobning bir burchiga hazillashib: "Suvning aylanishidek qudratli xususiyatiga ko'ra, yerga olib tushilgan OYga hurmat bilan Fuzuliyning nabirasidan. 1941-yil, may" degan, yozuvim turardi.

Shunday baqirdimki, o'sha paytda ichimga qasoskor bo'ri kirib oldi. Men endi, hech narsadan qo'rqmasdim.

Endi, men urush ochganlarning hammasini o'ldiraman, mana shu, sen yonib ketgan vagondek ularni yoqaman, kullarini ko'kka sovuraman! O'limlarni o'ldiraman! Manzura! Mening Manzuram!

\*\*\*  
U urushdan qaytmadi. U nemislar oldiga otib yuborgan nonga tashlanmagan 101 ta o'zbek bardoshining biri edi. Bu mardlikdan g'azablangan nemislar ularning barchasini otib tashlagan va shahar yaqinidagi o'rmonga ko'mib yuborgan. (Navoiylik jurnalist Jonibek Shuhratovning jasur jangchi bobolarimiz haqida aniqlagan materiallaridan foydalanildi).

**Zulfiya MO'MINOVA,**  
shoira, O'zbekistonda  
xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi

Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi



Qahramonlar nomi barhayot

# MARD O'G'OLON

## xotirasi e'zozda



Afsuski,  
Akmal  
Mirzaahmedov

Inson uchun ona Vatan – muqaddas maskan, bebaho ne'mat. Yurt tinchligi, xalq osoyishtaligi va sarhadlar daxlsizligini ta'minlash esa har qanday davrda eng sharafli va mas'uliyatli vazifa bo'lib kelgan. Ayniqsa, bugungi murakkab va tahlikali zamonda yurt himoyasida turgan harbiy xizmatchilarning fidoyiligi, jasorati va matonati har qancha e'tirof etilsa, arziydi. Chunki xalqning tinch hayoti, farovon kelajagi va mamlakat barqarorligi ana shunday mard va jasur insonlarning hushyorligi hamda sadoqatli xizmatlari evaziga ta'minlanadi.



Asrlar davomida xalqimiz Vatan himoyasini muqaddas burch deb bilgan. Ajdodlarimiz ona yurt ozodligi va tinchligi yo'lida jonini ayamagan, mardlik va jasorat namunalarini ko'rsatgan. Bugungi kunda ham ana shu ulug' an'analar davom etmoqda. Yurt ravnaqi va xalq osoyishtaligi yo'lida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar safida Vatanga sadoqatni o'z hayot mazmuniga aylantirgan fidoyi o'g'lonlar ko'plab topiladi.

Mamlakatimizda Vatan himoyachilarining xizmatlarini qadrlash, ularning jasorati va matonatinini yoshlarga ibrat sifatida targ'ib qilish, ayniqsa xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar xotirasini abadiylashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ana shunday ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega tadbirlardan biri Samarqand viloyatining Toyloq tumanidagi 38-sonli umumta'lim maktabida bo'lib o'tdi. Ushbu ta'lim maskanida Vatan ravnaqi va xalq osoyishtaligi yo'lida fidokorona xizmat qilgan marhum harbiy xizmatchi Akmal Mirzaahmedov xotirasiga bag'ishlangan byustning tantanali ochilish marosimi tashkil etildi. Mazkur tadbir nafaqat bir inson xotirasiga bo'lgan hurmat ifodasi, balki yosh avlod qalbida vatanparvarlik, mardlik va jasorat tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim ma'naviy tadbir sifatida alohida ahamiyat kasb etdi.

Tantanali marosimda Markaziy harbiy okrug harbiy xizmatchilari, Serjantlar tayyorlash oliy maktabi vakillari, tuman mudofaa ishlari bo'limi mas'ullari, faxriylar, mahalla faollari, pedagoglar hamda o'quvchi-yoshlar ishtirok etdi. Tadbir davomida Vatan himoyachilarining sharafli burchi, xalq

tinchligi va yurt osoyishtaligi yo'lidagi xizmatlari, harbiy kasbning naqadar ulug' va mas'uliyatli ekani haqida samimiy hamda ta'sirli fikrlar bildirildi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar bugungi tinch va osoyishta hayotimiz ortida ana shunday mard va fidoyi insonlarning xizmatlari mujassam ekanini alohida ta'kidladi. Yurt himoyasi yo'lida jonfido qilgan insonlarning nomi va xotirasi hech qachon unutilmasligi, ular yoshlar uchun chinakam jasorat timsoli bo'lib qolishi qayd etildi.

Akmal Mirzaahmedov ana shunday mard va jasur o'g'lonlardan biri edi. U 1982-yili Toyloq tumanining Mirzapolvon qishlog'ida tavallud topgan. Oddiy, mehnatkash oilada voyaga yetgan Akmal yoshligidanoq intiluvchanligi, kamtarligi, qat'iyati va Vatanga muhabbati bilan ajralib turgan. Mahalla ahli va ustozlari uni odobli va mas'uliyatli yigit sifatida yaxshi eslashadi.

1988-yilda Toyloq tumanidagi 38-sonli umumta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilingan Akmal o'qish davomida faolligi, intizomi va bilimga chanqoqligi bilan tengdoshlari orasida alohida e'tibor qozongan. Ayniqsa, harbiy-vatanparvarlik ruhida tadbirlarda faol qatnashgani, sport musobaqalarida o'zining chaqqonligi va matonatinini namoyon etgani uning kelajakda harbiy kasbni tanlashiga zamin yaratgan edi.

Ustozlari va sinfdoshlari xotirlashicha, Akmal yoshligidan

“Vatanga xizmat qilish – eng oliy sharaf” degan tushunchaga sodiq bo'lgan. U harbiylar haqidagi kitoblarni sevib mutolaa qilgan, jasorat va mardlik haqidagi hikoyalarni qiziqish bilan o'qigan. Shu bois uning qalbida yurt himoyachisi bo'lish orzusi tobora mustahkamlanib borgan.

1999-yilda maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach, muddatli harbiy xizmatni o'tashga qaror qildi.

2002-yili Termiz shahrida muddatli harbiy xizmatni ado etib, o'zining intizomi, jismoniy tayyorgarligi va mas'uliyati bilan qo'mondonlar e'tiborini qozondi.

Akmal Mirzaahmedov harbiy xizmat davomida har qanday vazifaga mas'uliyat bilan yondashadigan, safdoshlariga suyanch bo'ladigan, jismonan chiniquqan va ruhan bardam harbiy xizmatchi sifatida shakllandi. Ayniqsa, uning matonati, hushyorligi va qat'iyati yuqori baholandi.

Keyinchalik U O'zbekiston Qurolli Kuchlari safida kontrakt bo'yicha xizmatini davom ettirdi. Akmal Mirzaahmedov insoniy sifatleri bilan safdoshlari orasida ajralib turdi. U harbiy xizmatni oddiy vazifa emas, balki muqaddas burch deb bildi. 2005–2007-yillarda serjantlar tayyorlash kursida tahsil olib, kichik serjant harbiy unvoniga sazovor bo'ldi. U o'qish davomida o'zining bilimdonligi, intizomi va tirishqoqligi bilan namuna bo'la oldi.

2007–2013-yillar davomida harbiy qismda mergan sifatida xizmat olib bordi. Merganlik esa harbiy sohadagi eng murakkab va mas'uliyatli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu kasb egasidan kuchli iroda, yuksak aniqlik, sabr-toqat va hushyorlik talab etadi. Akmal Mirzaahmedov ana shu mas'uliyatli vazifani sharaf bilan ado etdi. U xizmat davomida ko'plab murakkab topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajardi, safdoshlariga o'rnak bo'ldi. Uning jasorati, matonati va xizmatga bo'lgan sadoqati rahbariyat tomonidan munosib e'tirof etildi. Namunali va fidokorona xizmatlari uchun 2012-yilda unga serjant harbiy unvoni berildi. Bu esa uning harbiy faoliyatiga berilgan yuksak baho edi.

2012-yilda xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'ldi. Uning bevaqt vafoti nafaqat oila a'zolari, yaqinlari va safdoshlarini, balki uni tanigan barcha insonlarni chuqur qayg'uuga soldi. Ammo Vatan uchun jonfido qilgan insonlar hech qachon unutilmaydi. Ularning nomi xalq qalbida yashaydi, jasorati esa yosh avlod uchun ibrat maktabiga aylanadi.

Tadbir davomida marhumning hayot yo'li va harbiy faoliyati haqida batafsil so'z yuritildi. So'zga chiqqanlar uning insoniy fazilatleri, kamtarligi, mehnatsevarligi va Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati haqida iliq xotiralari bilan o'rtoqlashdi.

Maktab hududida qad rostlagan byustning tantanali ochilishi tadbirning eng hayajonli va ta'sirli lahazaridan biri bo'ldi. Tadbir ishtirokchilari ushbu byustni mard o'g'lonning yorqin xotirasiga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtirom ramzi sifatida baholadi. Darhaqiqat, bu kabi ezgu tashabbuslar yosh avlod qalbida ona Vatanga muhabbat, harbiy kasbga hurmat va yurt tinchligini asrashdek ulug' qadriyatlariga sadoqat tuyg'ularini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirda marhumning farzandiga oliy ta'lim muassasasiga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma topshirildi. Oila a'zolariga moddiy yordam va qimmatbaho sovg'alar taqdim etildi. Bu esa davlatimiz va xalqimiz tomonidan harbiy xizmatchilar hamda ularning oilalariga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi.

Tinchlik – eng ulug' ne'mat. Uni asrash esa yuksak jasorat va fidoyilikni talab qiladi. Bugungi osuda hayotimiz, farovon turmushimiz zamirida ana shunday mard va jasur insonlarning xizmatlari mujassam.

Akmal Mirzaahmedovning hayoti va jasorati yoshlar uchun haqiqiy ibrat maktabidir. Uning Vatanga sadoqati, xalq tinchligi yo'lidagi fidoyiligi va mardligi hech qachon unutilmaydi. Yurt himoyasi yo'lida jonfido qilgan mard o'g'lonning porloq xotirasi xalqimiz qalbida mangu yashaydi.

**Parvina ABDUHAMIDOVA,**  
Markaziy harbiy okrug  
matbuot xizmati bosh  
mutaxassisi

Keling, kitob o'qiyimiz!



Ijtimoiy tarmoqlarning eng yaxshi jihatlaridan biri kitoblar haqida ma'lumotlarning ko'pligidir. Bu yerda siz yangi nashrdan chiqayotgan, chiqqan kitoblar haqida tez xabar topasiz. Qodir Jo'rayevning "Esimni tanigan kun" kitobi chiqqanligini ham shu yerda o'qiding. Muallifdan shunchaki so'rashim ham mumkin edi, lekin unda bu kitobning qo'limga tegishi noma'lum qolar edi. Rad etib bo'lmaydigan yo'lini tanladim: "Vatanparvar" gazetasining eski do'sti sifatida kitobingizdan bir dona bizga hadya qilsangiz, sevinar edik". Eski do'stlikni pesh qilish ham yomon emas ekan. Kitob qo'limizga tegdi, muallifning dastxati bilan. Uni siz, aziz o'quvchilarimizga ham ilindik.

Professor Qodir Jo'rayevni siyosatchi sifatida tanir edim. Chunki u bir necha bor O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga saylangan. Aynan o'sha kezlari armiya va xalq yakdilligining amaliy ifodasi o'laroq, uni Vatan himoyachilari huzurida bot-bot ko'rganmiz, ma'ruzalarini tinglaganmiz, maqolalarini o'qiganmiz. "Esimni tanigan kun" kitobi men uchun kutilmagan yangilik bo'ldi. Birinchi bo'lib, o'zbekona tasvirli muqovasi o'ziga tortdi. Demak, kitob siyosatga bag'ishlanmagan, unda ko'ngilga yaqin nimadir bor, degan o'y kechdi. Kitobni varaqlar ekanman... Rostini aytsam, uning bu qadar inja olami borligini bilmas ekanman. Hayratga tushgan yolg'iz men emasligimni ham bildim. Hikoyalar, tarjimalar, badiiy-publitsistik ocherklar...

Odatimga ko'ra, shosha-pisha varaqladim. "Tinimsiz kurash ramzi yoxud qaldirg'och haqida esse"ni ko'rib turkiy dunyoning taniqli adiblaridan Esong'ali Ravshanovning esselari yodimga tushdi. Tez-tez ko'z yugurtirdim. Albatta, katta adib bilan bo'ylashish qiyin. Biroq bunda ham xotiralarni to'z'g'itib yuboradigan samimiyat mujassam ekan.

#### "Qaldirg'och va men"dan o'qiyimiz:

- "Salom, bu men, do'sting qaldirg'och,  
Uzoq kutdim bahor kelishin!  
Dunyo kezib, qaytdim inimga  
Qabul ayta birga bo'lishim!"  
- Xush kelibsan, o'ktam qaldirg'och,  
Minnatdorman, qaytganing uchun!  
Minnatdorman, hasrat-la to'lgan  
Dilga taskin berganing uchun!"

Adabiyotshunos emasman, shunchaki kitobsevarman. Bu misralar tahlili adabiyot sinchilariga havola. Biroq bu qaldirg'och, bu misralar olis yoshlikni, jafokash onamni yodimga soldi.

Ko'klam. Tonglar salqin, havoda xush iforlar suzadi. Ayvon tepasidan bir juft qaldirg'ochning vijirlashi eshitaladi. Onam joynamozdan boshini ko'tarib, ularga qaraydi, chuqur "uff" tortib oladi, "shukur" deya pichirlaydi. G'amgin ovozda qaldirg'och bilan dardlashadi: "Kelibsan-da, xush kelding! Menga ham xushxabaring bormi? Tuxum ham qo'ygandirsan? Hademay bola ochasan, uchirma qilasan, ko'zim o'ngida. Kelinimning uchinchi bolasi ham o'lik tug'ildi... Xabaring bo'ldimi?" Ko'rpaga burkanib yotgan joyimda onamning sassiz yig'isini sezib yotaman. Nafas olishim qiyinlashadi. Kecha ko'zi g'iltillab yoshga to'lgan akamni dag'allik bilan "Igitmisan (yigitmisan), igitday tut-da, o'zingni. Yig'i-sig'ini ayalga chiqargan. Oldilaring to'la bola. Bor, ana, qishdan qolgan g'olalarni maydalab, taxlab joylashtir", deb siltagan onam emasmi?! Qaldirg'ochga dardini to'kib, ezilib yig'layotgan onamning kechagi qahri qayerda qoldi?! O'g'liga qo'shilib ho'ng'rab yubormaslik uchun, o'g'lini chalg'isin deb, o'zini qahrli ko'rsatgan onam, qaldirg'ochga ko'nglini yorgan onam...

Ana shunday. SO'Zda sehr bor, deganlari shu. Oddiy sakkiz qator she'r bir ko'ngilni shunchalar alg'ov-dalg'ov qildi.

Hayotiy hikoyalardan biri "Onamning qarg'ishi" deb nomlanadi. Cheksizlikka ulanib ketgan paxta dalasi. Yetti-sakkiz yoshlardagi bola. Qo'lida ovqat solingan bidoncha. Akalariga ovqat olib ketyapti. Shu payt...

**O'qiyimiz:** "Samolyot bir aylanib olib, endi orqa tomondan yana menga qarab uchib kela boshladi. Shunda bu shunchaki defoliatsiya emas, uchuvchi men bilan "o'ynashayotganini" angladim. Orqamga qaramasdan, jon-jahdim bilan yugurdim. To'satdan qoqilib, yerga yuztuban yiqildim. Qo'limdagi bidonchadan ovqat to'kilib ketdi. Samolyot esa ustimga zaharli dorini sochib, yana balandga ko'tarildi. Har

tomondan ho'psigan quruq tuproq isiga badbo'y dori hidi qo'shildi.

Birozdan so'ng dorining achchig'i dimog'imni bo'g'di, ko'nglim aynib, qusdim. Paxtazor chetidagi loyqa ariqdan og'zimni chaydim..."

Juda-juda tanish manzara. Bola-baqra demay, ustingdan zahar sochib uchadigan samolyot, ariqlarning zahar tomgan loyqa suvlari... Bugungi avlod yaqin o'tmishni, bizning bolaligimiz fojialarini anglarmikan?! Yaqindagina birining "Tog'ay Murod qishloq turmushini juda bo'rttirib yuborgan" degan da'vosini o'qidim. Hatto Tog'ay Murodga ham ishonmaydiganlar bor.

Maqolalarimda bolaligimizni o'g'irlagan paxta dalalari, o'sha davming biroz o'tib qalqib chiqqan fojialari haqida yoritishga harakat qilganman. Muallif bilan bolalik xotiralarimizning o'xshashligi ham shunda.

Yoshlikda hammaning ham pand-nasihat eshitishga toqati yetavermaydi. Biroq kun kelib, bobo-buvilar, ota-onalar o'gitini xotirlaysiz. Hayot bularni eslatadi, ularning haqligini anglaysiz. Muallif kabi hayotingiz tamoyiliga aylantirasiz.

#### "Bobomning so'nggi nasihati"dan o'qiyimiz:

"Odamlarga yaxshilik qil. Kimligidan qat'i nazar, qo'lingdan kelgan yaxshilikni ayama".

"Mol-dunyoga hirs qo'yma, chunki nafs odamning yuragini kir qiladi".

"Hayot yo'lingda har xil odamlarga duch kelasan. Qalbi ko'mirdek qora insonlar ham uchraydi. Ularni o'zgartirishga aslo urina ko'rma. Bu behuda ish. Baribir uddasidan chiqa olmasan".

"Odamlardan ayb axtarma, aksincha fazilat izlashni o'rgan".

**Yana bir hayotiy hikoya "Fransuz do'stimdan olgan saboq"** deb nomlanadi. Mazkur hikoyani alohida tavsiya etishni istar edik. Vatanparvarlikdek yuksak tuyg'uning eng oddiy va ibrat olsa arziqli ko'rinishidir. O'quvchi o'zi istab o'qiydi degan umid bilan parcha keltirishni lozim topmadik.

**"Otalik instinkti" ham juda ta'sirchan.** Inson farzandi uchun nimalarga qo'l urmaydi-ya?! Buni o'zingiz o'qishingiz kerak. Mazmun haqida to'xtalish mutolaa qimmatini pasaytiradi.

Ridyard Kipling asarlari ta'siridami, birmuncha vaqt tog'-toshlardan topilgan Mauglilar haqida xabarlar tarqalgan. Va jiddiy surishtiruvlarsiz sobiq Ittifoq markaziy nashrlarida e'lon qilingan. Ko'p o'tmay, bunday xabarlarining asossizligi isbotlangan. Bu haqda taniqli ijodkor Nusrat Rahmatning "Men redaksiyadanman" kitobida qiziqarli ma'lumotlar bor. "Mening onam - bo'ri"da esa anchagina asosli ma'lumotlar bor.

#### O'qiyimiz:

"1957-yil. Ustyurt sahrosida (*Turkmaniston va O'zbekiston chegarasidagi Sariqamish ko'li atrofida*) geologlar vertolyot bilan bo'ri ovlashga chiqishdi. Ular bo'rilar to'dasini quvib yetganda bo'rilar orasida taxminan besh yoshli bola ham yugurib ketayotganini ko'rib hayratda qolishdi".

Davom ettirishdan tiyilamiz. Qiziqarli voqeaning davomini o'zingiz o'qib bilib olasiz.

Keyingi paytlarda tarjima asarlar ko'payib ketdi. Tarjima juda og'ir ish. Mukammal tarjima asarlar o'zbek adabiyotini boyitadi. Biroq hammasi haqida ham bunday deb bo'lmaydi. Sayoz tarjimalar ham serob. Bular o'quvchi didini o'tmaslashtiradi. "Esimni tanigan kun" kitobidan tarjimalar ham joy olibdi. Bu ham muallif ijodining serqirraligidan dalolat. Badiiy tarjimalarining ingliz, rus, fransuz tillaridan tarjima qilingani kishini hayratga soladi.

Elizabeth Saylans Ballardning "Teddi yozgan maktublar" hikoyasi ingliz tilidan o'zbek adabiy tiliga chevirilgan. Aziz o'quvchi, bu hikoyani oilangiz davrasida o'qing. Insonni anglash qiyin. Yoningizdagi inson qalbidan kechayotgan po'rtanalarni har doim ham his qilib bo'lmaydi. Bu hikoya tuyg'ularni shakllantiradi, o'zgaralar dardiga quloq tutishni, hamdard bo'lishni, insonni anglash mo'jizalar yaratishga qodirligini ko'rsatadi.

Kitob haqida ko'p gapirish mumkin. Biroq o'zingiz o'qiganingiz ma'qul. Ko'ngil xazinangizni "Esimni tanigan kun" degan bir chimdim nur bilan boyiting.

Huzurli mutolaalar tilagi bilan

**Inobat IBROHIMOVA,**  
"Vatanparvar"

Esse



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi

# U SHOIR JANGCHIMIDI?

“Adiblar xiyoboni”ni bilasiz-a? Ha, o'sha joy. Kaminangiz u yerga tez-tez borib turadi. Negadir bu maskan odamning ichidagi shovqinni bosadi. Har safar qalin daraxtlar soyasi oralab ketar ekanman, o'zimni hayotdan bir qadam chetga chiqqanday his etaman. Go'yo vaqt u yerda boshqacha o'tadi.

Anhor suvi sokin. Osmon unga qulab tushganday. Balki shuning uchunmi, yuragimdagi bezovtalik ham biroz bosilgan. Inson ba'zan xayol bilan hayotning o'rtasida qolib ketarkan-da, aka.

Yo'q, men sizga xiyobon haqida emas, boshqa bir voqeani aytib bermoqchiman. Bu safargi hikoyam avvalgilari o'xshamaydi. Unda to'qima yo'q. Faqat yo'qotilgan yoshlik, Vatan sog'inchi va qalam uchidan tomgan alam haqida gap boradi.

O'sha kuni Dilorom Yormatovani uchratdim. U anhor bo'yidagi o'rindiqlikda yolg'iz o'tirardi. Ko'zlari g'amgin, xuddi yillar orasida adashib qolgan inson nigohidek. Yuzida charchoq bor edi, ammo bu oddiy charchoq emas – umr charchoq'ini edi.

Biz uzoq suhbatlashdik.

Qushlarning nega kechqurun mahzun sayrashi, daraxt tomiridan quriydimi yoki uchidanmi, inson qaysi xatolarini umr bo'yi kechira olmasligi haqida gaplashdik. Keyin kitoblar, yozilmay qolgan asarlar, yarim yo'lda singan taqdirlar haqida so'z yuritdik.

– Burxon Tursunovni taniysizmi? – dedi u mavzuni shu tomonga burib, ma'yus nigohini anhor suviga tikib.

Men yelka qisdim.

Shamol daraxt shoxlarini sekin tebratar, anhor yuzida quyoshning so'nggi nurlari jilvalanadi. Aka, ishonib bu ismni avval hech ham eshitmaganman. Aniq bilaman, siz ham hozir, kaminadan eshityapsiz. Demak, ikkimiz ham quruq xotiralar atrofida kezganmiz. Chunki bu ism ortida bir inson emas, butun bir fojia yashiringan.

Dilorom Yormatova bir muddat jim qoldi. So'ng past ovozda so'zida davom etdi:

– U ham adabiyotga xizmat qilishi mumkin edi...

Ovozida titroq paydo bo'ldi. Shamol uning sochlaridagi oq tolalarni yengil silay boshladi.

– Bobomiz Ikkinchi jahon urushiga o'z xohishi bilan ketgan, – dedi u. Tasavvur qilyapsizmi, aka? Ayrimlar jonini saqlash uchun qochgan bir paytda, u o'zini olovli xandaqlarga otgan ekan.

– Balki, chin farzandlik burchi ustun kelgandir, – dedim men.

– Chin farzandlik burchi? – deya so'zimni takrorladi opa. – Balki, shu bilan yuragiga taskin izlagandir ham.

U endi men bilan emas, o'z xotiralari bilan gaplashayotgandek edi. Yuzidagi og'riq asta-sekin ochilib borar, nigohida esa yillar davomida yig'ilgan og'irlik paydo bo'lgandi.

– *Million ahli sabr etar,  
Gullab turgan bog'iga.  
Ozod xalqlar havas aylar,  
Bizni sevgan Vatanga...  
– “Bizni sevgan Vatanga...”*

– deb so'nggi misrani beixtiyor takrorladim.

U yana jim bo'ldi. Ko'zlari o'zbekning zabardast ijodkorlariga o'rnatilgan haykallar tomon tikilgandi.

– Bobomiz qalamiga mansub, – dedi u samimiy jilmayib.

Keyin bir muddat boshini egib, chuqur o'yg'a soldi.

– Onamning aytishicha, akasi Burxon Tursunov o'tkir zehni inson bo'lgan ekan, – deya so'zida davom etdi suhbatdoshim. – U paytlar Samarqand viloyatining Jom tumanida oltinchi sinfgacha o'qiydigan bola kam bo'lgan. Ko'pchilik farzandini beshinchi sinfdan keyin mehnatga jalb qilardi. “O'qish qorin to'ydirmaydi”, deyishardi. – Uning yuzidagi ajinlar bir lahza yumshadi. – Lekin Burxon Tursunov va tengdoshi Nurmat ilm izlab, tumandan chiqib ketishgan. Qarang, o'qish uchun uyini tashlab ketgan bolalar. Sharoit yo'q. Non yo'q. Kiyim yo'q. Ammo kitobga muhabbat bor.

O'zimni ich-ichimdan sinib ketgandek his qildim. Ko'ksimda achishish paydo bo'ldi. Maktabga borib yurgan kezlarim kitobni majburiyat deb bilardim. Darsdan qochish uchun bahona qidirardim. Holbuki, bizda hamma narsa bor edi: yorug' sinfxona, yangi kitoblar, issiq uy, to'kin hayot...

Ammo ularda-chi?

Ular ilm uchun uyidan chiqqan.

Qorong'i qishloqdan, changday yopishgan qashshoqlikdan o'zini shu yo'l bilan qutqargan.

Faqat o'qish uchun. Nom qoldirish uchun. Biroq urush boshlandi. Sovuq, shafqatsiz urush. Orzularga to'lgan yuraklar sinov ostida qoldi.

Anhorga qaradim. Uning sokinligi endi tinchlik emas, og'ir sukut edi. Suv yuzida titrayotgan nurlar menga kimningdir singan orzularidek ko'rinib ketdi.

– Keyin nima bo'lgan? – dedim yutunib.

Dilorom opa oyog' ostidagi chiriq boshlagan chinor bargini avaylab oldi. Keyin uni tomosha qildi. So'ng lablarida tabassum paydo bo'ldi. Ammo bu jilmayish ortida ko'proq qayg'u o'zini ko'rsatardi.

– U ko'p jangda ishtirok etgan, – dedi nihoyat. – Burch ortidan ketgan. Guruhni yaxshi boshqargani uchun leytenant unvonini ham olgan. Germaniya hududigacha borgan. Og'ir janglarda qatnashgan.

Ayol yana to'xtab, yutindi. Quriy boshlagan labini o'ng qo'lining orti bilan artib oldi.

– Zelov tepaligini eshitganmisiz?

Men boshimni qimirlatib qo'ydim. Ayol yuzini burdi.

– U joy Germaniyada, – dedi mayin ohangda. – O'sha yerdagi qonli janglarda Burxon Tursunov ham ishtirok etgan.

Shunda ko'z o'ngim qorong'ilashdi. Men endi, hikoyani tinglamasdim. Boshqa savol bermadim. Berolmadim. Jim bo'ldim. O'sha jang sahnalari ko'zim oldida paydo bo'la boshladi. Askarlarning og'rig'ini tanamda his qilyapman. Qorong'i osmon. Yerni yoritgan portlashlar. Qichqiriqlar. Tutun. Olov ichida yurgan, yaralangan odamlar.

Ha, urush dehqonni ham, shofyorni ham, cho'pon va ustani, hatto shoirmi ham qalbiga hujum qilgan. Yurakni tilkalagan umrlarni barbod qilgan. Otalarning belini bukib, onalarning sochini qirov qilgan, o'sha quzg'unlarni ichimdan qarg'adim.

Bu dahshat. Dahshat ichida ko'zlar yig'lamay, ko'zyosh to'kdi. Ko'zyosh ham bora-bora quridi. Endi, yig'lab bo'lmaydi. Endi, kulgi ham tiyila boshladi. Hamma tek turadi. Jim bo'ladi. Nigohlar so'z aytadi: tugab qolar, bolam qaytar, ana kutilgan xat keldi.

Ammo u qog'oz parcha kelmagani yaxshi edi. Yo'lda yonib ketgani, suvda erigani ma'qul edi: askar mardlarcha halok bo'ldi!

– Ha, joni ketdi.  
– Qayerga ketdi?

– Osmonga uchdi.

– Aniq uchdimi?

Jim-jim! Aytma! So'z dema! Bu yo'qlik daryosi. Bu yig'i ko'li. Hammasi avval boshidan xato bo'ldi. Ijod, she'r deb ko'nglini to'ldirgan shoir qon kechdi. Ichak-chovoqlar titilgan tanalar, qo'l-oyog'i uzilgan askarlar qarshisida tiliga so'z kelarmidi? Kelmadi.

– Keldi-ku.

– Ko'rma, degandim.

G'azab boshlandi. Ruh sindi.

Snaryad zulmat bag'rini tildi. Askar baqirdi. Yana yig'i to'liqini atrofni tebratib qo'ydi. O'liklar va tiriklar qorishib ketdi.

– G'alaba yaqin, – dedi do'rildoq ovozda komandir. – Jangchilar, ortga yo'l yo'q.

Ortga qaytmadi. G'o'r ketdi. Ho'l ketdi. Ha, qon hidiga dimlandi.

– Tuf-tuf.

Og'zidan qon keldi. Ammo baribir yozdi:

– Qurollar qirdi,

Yerlar yutdi.

– Nimani yutdi?

Jonlarni yutdi. Aytolmagan she'rlarni yutdi. Nishonga bir parcha mis emas, jonsiz, ammo ulkan misralarning bosh harflari borib tegdi.

– Tegdimi?

– Tegdi.

– Yig'ladimi?

– Yo'q.

Ha, shoirlar yig'lamaydi. Ular jim qariydi. Biroq qalbi vayron bo'ladi. Qayta tilga kirsam, ko'ngillarni shod etadi.

– Etadimi?

– Etadi.

Dilorom opaning shivirlaganidan o'zimga keldim. Ichimdan nimadir uzilib, anhorga tushdi. Suv bir to'lqinlandi-yu, yana sokin oqaverdi.

Ayol o'ng qo'li bilan kipriklarini erkalayotgan ekan.

– Frontda turib ham she'r yozganiga nima deysiz? – dedi Yormatova.

– Yozish mas'uliyati tinch qo'ymaganga o'xshaydi.

– Pulemyotni oldiga chiqqan, u,

– dedi opa xira ovozda. – Ko'kragini shundoq pulemyotga to'g'rilagan. Safdoshlari birin-ketin o'la boshlaganini ko'rgan Burxon Tursunov dushman askariga tikka qaragan. O'zini olovga tashlagan. Ha, o'sha qonxo'rning ham jonini olgan. Biroq o'zi ham so'nggi nafasini shu yerda chiqqan.

Daraxtning bargi o'ynab qoldi.

– Bir yurak uchun bunday shijoat qayerdan keldi? – dedi u. – Onasi keyin ado bo'ldi. Bolam, deb yig'ladi.

– Urush bobomni ham olgan.

Dilorom o'rnidan turdi. So'zimni eshitmagandi. Oyoqlari arang muvozanatni ushlab turardi. Keyin tepadan menga lablarini mahkam yopib, qarab turdi-da, ortiga – qator qilib o'rnatilgan haykallar tomonga chayqalib yurib ketdi.

Ayol ko'p o'tmay, xiralashdi, so'ng ko'rinmay qoldi. Men shu joyda uzoq o'tirdim. Quyosh cho'kdi. Suv vishillab ovoz chiqara boshladi. Qushlar betartib sayrashga tushdi. Nimadir o'zgardi. Hammasi Dilorom opaning ketishi bilan tartibdan chiqib ketdi. A'zolarim qaqshab, o'tirgan joyimdan turdim. Keyin avtobusga chiqib, derazadan tashqarini – bekatlarni, unda turgan odamlarni, Chorsu, Navoyi–30 ko'chasi va Mustaqillik maydonini tomosha qilib boraverdim. Xotirjamlik qaytdi. Ko'zim og'irlashdi. Uyg'a bormay, uxlab qoldim.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,**  
“Vatanparvar”

Ekologik suiqasd

# INSON O'Z KELAJAGINI

## qanday yo'q qilmoqda



Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, televideniya va ijtimoiy tarmoqlarda tabiat va ekologiyaning ahvoli tobora ifloslanib, yomonlashib borayotgani, ekologik tanglik va geologik falokat yuzaga kelishining xavfi kuchaygani to'g'risida hamda tabiatni asrash yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rish zarurligi haqida ko'plab ma'lumot va xabarlar berib borilmoqda.

Bugun biz dunyo miqyosida yuzaga kelgan ekologik fojialar, masalan, Orol dengizi suvining qurib borishi, Chernobil AESida yuzaga kelgan avariya yoki Amazon o'rmonlarining keskin qisqarib ketayotgani, okean va dengizlarga neft mahsulotlarining to'kilishi oqibatlarini, tabiat hodisalari – to'fonlar, dovullar va sellar, quyosh haroratining o'ta qizib ketishi natijasidagi qurg'oqchiliklar haqida fikr yuritmaymiz, chunki bu oddiy insonlarning xatti-harakatlariga bevosita bog'liq bo'lmagan, davlatlar, yirik korporatsiyalar, boy badavlat shaxslarning manfaatlarini kengayib borayotgani oqibatida kelib chiqayotgan ekologik tanglik va geologik falokatlar sanaladi.

Biz o'z imkoniyatlarimizni boy berib qo'yishimiz, e'tiborsizlik va loqaydligimiz sababli yon-atrofimizda yuz berayotgan ekologik tanglikni yaxshilash to'g'risida hamda hududlarning ifloslanishi keskin ortib borishining oldini olish haqida so'z yuritib, ona tabiatni asrash va avaylash, "toza hudud", "yashil makon" kabi aksiya va loyihalarni orqali bugungi kunda juda ham achinarli ko'rinishga kelib qolgan tabiatimizni, nafas olayotgan havoni asrab-avaylashga o'z hissamizni qo'shishni maqsad qildik.

Xo'sh, atrof-muhitni keskin ifloslanishida asosan inson omili yotadi, desam, to'g'ri aytgan bo'lamanmi? Yoki boshqa sabablar ham bor demochimiz? Men ona tabiatni saqlash, havoning ifloslanishini oldini olish yuzasidan o'z fikr va mulohazalarim bilan o'rtoqlashishga urinib ko'raman.

Qayd etish joizki, oxirgi 30-40 yil ichida insonlarning befarqligi, mas'uliyatsizligi oqibatida ekologik muammolar va atrof-muhitning keskin ifloslanishini yuzaga keltiruvchi nojo'ya xatti-harakatlar xilma-xilligi tobora jilovlab bo'lmay ko'rinishga kelib qoldi, barchamizni xavotirga solishi bilan bir qatorda yosh avlodni ona tabiatni asrash ruhida tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, bular quyidagicha namoyon bo'lmoqda:

- avtomobilda harakatlanayotgan aksariyat haydovchilar va yo'lovchilar uning oynasi orqali shisha, plastik va alyumin suv idishlarini, selofan va qog'oz xaltalarni, oziq-ovqat qoldiqlarini, ho'l va quruq salfetkalarini hamda boshqa chiqindilarni hech ikkilanmasdan yo'l va yo'l chetlariga tashlab ketishlari odatiy holga aylanib qoldi. Odamlarning "bitta paket yoki suv idishini yo'lga, yo'l chetiga tashlasam, ekologiyaga zarar qilmaydi" deb fikrlashlari, oxir-oqibat tabiatning ifloslanishiga olib kelishini his qilmasligidan dalolat

beradi. Masalan, haydovchi va yo'lovchilarning bunday xatti-harakatlari natijasida O'zbekistonimiz hududi bo'ylab milliondan ortiq kichik chiqindi ko'chalarda, kichik ariqlarda, yo'llarda, yo'l chetidagi zovurlarda, o't-o'lanlar ichida yig'ilib qolmoqda;

- bir martalik paketlar, plastik baklajkalar va alyumin bankalar atrof-muhitni eng xavfli ifloslantiruvchilari bo'lib, ularning parchalanishi uchun kamida 300 dan 500 yilgacha vaqt talab etiladi. Bu chiqindilar yillar davomida havoga zaharli gazlar ajratadi, tuproq unumdorligini pasaytiradi, suvlarni zaharlaydi, ekotizimda mikroplastiklarni hosil qilib, yer-ekin-ozuq-ovqat zanjiri orqali inson, hayvonot organizmlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi natijasida insonlar orasida xavfli kasalliklarni keskin ko'payishiga olib kelmoqda;

- bugungi kundagi texnik rivojlanish va taraqqiyot shu darajaga yetdiki, fuqarolar ishlatayotgan maishiy-texnik buyumlari ishdan chiqib, nosoz holga kelib qolsa, ularni sozlab-tuzatish o'rni yangisini xarid qilib, nosozini chiqindiga tashlab yuborishlari "zamonaviy urf-odat"ga aylanib qoldi, bu esa, o'z navbatida, chiqindi tashlash joylarining tez to'lib qolishiga hamda chiqindi tashlash hududlarining kengayib ketishiga olib kelmoqda;

- aholimiz, ayniqsa yoshlarimiz orasida boshqalar mehnatini qadrlash, jamiyat mulkini saqlash va asrab-avaylash kabi tushunchalar yo'qolib ketishi, oddiy tarbiyasizlikning rivojlanib borayotgani natijasida aholi yashash joylari, xiyobonlar, ko'chalarda yaratilayotgan sharoitlarni ishdan chiqarish, xususan tungi yoritish chiroqlarini, bekatlarni nodonlarcha buzib, nosoz holatga keltirish yoki "xursandchilik uchun" sindirishlari avj olib ketgani na ota-onalarni, na jamoatchilikni xavotirga solmoqda, bunday holatlar ham tabiatni ifloslanishiga olib kelishini hech kim o'ylab ko'rmasligi taajjubligicha qolmoqda;

- tushuntirish-profilaktik ishlar olib borilishiga qaramasdan, chekka va olis hududlardagi bug'doy yig'ishtirib olingan dala maydonlari va xazonlarni yoqish hanuzgacha davom etmoqda, bu ham tabiatning ifloslanishiga sabab bo'lyapti;

- mavjud issiqxonalarini isitishda tungi vaqtlarda yoqilg'i sifatida avtomobil shinalari va neft qoldiqlarini (*mazutlarni*) ommaviy tarzda ishlatish jamoatchilik va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining nazoratidan chetda qolmoqda, bu esa toza havoga zarar yetkazmoqda, havoning ifloslanishi oqibatida esa fuqarolarning nafas olish organlari bilan bog'liq kasalliklar yildan yilga avj olmoqda;

- yurtimizda shaharsozlik ishlarining kengayishi, yangi sanoat zonalarining ochilishi yashil hududlarning qisqarishiga olib kelishi bilan bir qatorda, bunyodkorlik va qurilish ishlari rivojlanib borishi natijasida karyerlardan o'zboshimchalik bilan shag'al qazib olish ishlari ham jadallashib, adirlar va dala maydonlarining ustki qatlami buzilishiga, o'simlik va hayvonot olamiga zarar yetishiga, yer landshaftining o'zgarishiga, tashlandiq va xavfli hududlar kengayib ketishiga sabab bo'lmoqda, shuningdek qurilish chiqindilarini aynan ana shunday nazorat

qilinmaydigan hududlarga tashlab ketish natijasida tabiatga jiddiy zarar yetkazilmoqda;

- insonlarning avtomobil xizmatiga o'ta bog'lanib qolishi natijasida yurtimiz bo'ylab avtomobil yuvish shoxobchalarining soni ham keskin ortib ketdi. Buning natijasida avtomobillarni yuvishda talab va qoidalariga umuman rioya qilmaslik suvning isrof bo'lishi, kimyoviy chiqindilarning yer qatlamlariga singishi, ariqlarga to'kilishi oqibatida insoniyatga, tabiatga, yer usti va yer osti suvlariga tiklab bo'lmas zarar yetkazilmoqda;

- soylar, kanallar va boshqa suv havzalari yon-atroflarida dam olish maskanlarining ko'payib ketishi, dam oluvchilar va maskan egalari tomonidan chiqindilarni hech ikkilanmasdan suvga tashlab, oqizib yuborishlari oqibatida tabiiy, chuchuk va sug'orish suvlarni ifloslanishiga va tabiatni jiddiy zaharlanishiga olib kelmoqda. Yoki dam olish uchun tabiat qo'yniga – lolazorlarga, qir-adirlarga, tog'li hududlarga kelgan sayohatchi yurtdoshlarimizning atrof-muhitga befarqlarcha munosabatda bo'lib, yeb-ichgan oziq-ovqat mahsulotlari chiqindilarini shundayligicha tashlab ketishlari ham havo tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi, albatta.

Ko'chalarni, mahalla va xiyobonlarimizdagi, turarjoylarimiz yon-atrofidagi bunday ifloslikni ko'rib, o'ylanib qolgan kishi, bu ketishda bir necha yillardan so'ng bizning yurtimiz ham Bangladesh, Hindiston kabi o'ta ifloslangan davlatlar qatoriga kirib qolmasligiga kim kafolat beradi?

Mening nazardagi, ushbu muammolarni hal etish va bartaraf qilish vaqti yetib keldi. Xo'sh, bu muammolarni qanday hal qilish mumkin?

Birinchidan, "shaxsiy namuna" ko'rsatish – buni har bir fuqaro o'zidan boshlab kerak, ya'ni chiqindilarni to'g'ri kelgan joyga tashlamay, jijoqlangan chiqindi burchaklariga tashlab, avtomobilda harakatlanayotganda esa chiqindilarni manzilga yetib borgandan so'ng chiqindi burchaklariga yoki konteynerlariga tashlab, tabiat qo'ynida dam olganimizdan so'ng esa yig'ilgan chiqindilarni maxsus chiqindi idishiga tashlab lozim, bu o'ta murakkab va bajarilishi qiyin bo'lgan yumush emas, albatta.

Ikkinchidan, "jazo muqarrarlari"ni ta'minlash yoki ko'maklashish maqsadida yon-atrofimizda yuz berayotgan tabiat ifloslanishini keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlar, odobsizlik, tabiat tozaligini buzish, ekologiyaga zarar yetkazish bilan bog'liq bo'lgan har qanday holatlarga tomoshabin sifatida qarab turmasdan, balki bu haqda tegishli mansabdor shaxslarga, tabiatni va huquqni muhofaza qilish tashkilotlariga xabar berish va huquqbuzarlikka qarshi qat'iy chora ko'rish lozimdir.

Uchinchidan, "toza hudud", "yashil makon" kabi aksiya va loyihalarni faqat ko'rgazma yoki OAVda yoritish uchun emas, balki haqiqiy "toza hudud" va "yashil makon"larni yaratish maqsadida amalga oshirish zarur. Yillar davomida ekilgan daraxtlarni parvarishlash, ular ustidan nazorat o'rnatish va hisob-kitob yuritish ishlari yo'lga qo'yilmagani natijasida moddiy mablag'larning

to'g'ridan to'g'ri "ko'kka sovrishga" qulay sharoit yaratib berilayotgani barchamizni xavotirga solib kelmoqda.

To'rtinchidan, "egasizlik kayfiyati"ga barham berish – aholi gavjum bo'lgan hududlarda, ko'chalarda, xiyobonlarda, aholi dam olish maskanlarida, tabiat qo'ynida, soylar, kanallar va boshqa suv havzalari raqamli videokuzatuv va jamoatchilik nazorati tizimini kuchaytirish, bu orqali fuqarolarni tozalikni saqlash tartib-qoidalariga amal qilishga yo'naltirish kerak.

Beshinchidan, suv manbalarini asrash va tejamkorligi tizimini barcha aholi yashash punktlari va tomorqa xo'jaliklariga joriy etish lozim.

Oltinchidan, "ekologik tarbiya" tizimini takomillashtirish – aholining, ayniqsa yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirish va ona tabiatni asrab-avaylashga o'rgatish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktab muassasalarida o'qitish sifatini oshirish, ommaviy targ'ibot-tashviqot ishlarini davlat darajasiga ko'tarish kerak.

Yettinchidan, toza tabiat va ekologiyani asrash ustidan "qat'iy nazorat" o'rnatish yoki nazorat tizimini kuchaytirish – sanoat va ishlab chiqarish korxonalarini, zavod va fabrikalarning ekologik mas'uliyatini oshirish lozim.

Sakkizinchidan, "Tabiatni asrash va ekologik tozalikka – har birimiz mas'ulimiz" g'oyasi ostida har bir xonadon, ko'p qavatli uylar, ko'chalarni, mahallalarni, tumanlar hududi, har bir davlat va nodavlat tashkilotlar, zavod va fabrikalar, xususiy ishlab chiqarish korxonalarini, muassasa va tashkilotlar, davolash muassasalari, savdo majmualariga yon-atrofidagi hududlarni taqsimlab birlashtirish orqali, ushbu hududlarda doimiy tozalov-obodonlashtirish ishlari o'tkazish, ekologik tozalikka erishish kerak.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash mumkinki, yurtimizda tabiatni asrash, ekologik tozalikka erishish bu mamlakatni barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini belgilovchi strategik omil hisoblanadi. Suv resurslari tanqisligi, havo ifloslanishi, yer qatlami va tuproqning fiziologik buzilishi nafaqat hududiy, balki global ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu muammolarni hal qilish faqat davlat tomonidan emas, balki mamlakatimiz aholisi, xalqimizning birligi bilan hal etiladi. Shuning uchun yosh avlod o'rtasida ekologik madaniyatni shakllantirish, ularning tabiatni asrashga bo'lgan mas'uliyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero "Tabiat insonlarsiz yashay olishi mumkin, lekin insonlar tabiatsiz yashay olmaydi".

Sh. ABDULLAYEV,  
B. MUXITDINOV,

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Sharqiy harbiy okrug fakulteti katta o'qituvchilari

# URUHLARDA QO'LLANILAYOTGAN ENG SAMARALI COUNTER-SNIPER TIZIMLARI

O'qotar qurollar yaratilganidan buyon merganlar jang maydonida alohida taktik kuch sifatida shakllanishda davom etgan. Ular dushman qo'mondonlari, yuqori lavozimli ofitserlar hamda strategik ahamiyatga ega nishonlarni yo'q qilish orqali jang taqdirini o'zgartirishga qodir. Shuningdek, merganlar dushman saflarida qo'rquv va beqarorlik uyg'otib, boshqaruv tizimini izdan chiqarishda ham muhim rol o'ynaydi. Bunday ta'sir natijasida dushmanning jangovar salohiyati sezilarli darajada susayadi.

Bugungi kundagi jangovar harakatlarda merganlarni o'z vaqtida aniqlash va ularni zararsizlantirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. XXI asr boshlaridan *counter-sniper* texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Zamonaviy urush sharoitida samaradorligini namoyon etgan bunday tizimlar bugungi harbiy strategiyaning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Shu bois bu xavfni oldindan aniqlash va samarali bartaraf etish maqsadida rivojlangan davlatlar armiyalari tomonidan yuqori texnologiyali counter-sniper tizimlari yaratilib, ular jangovar amaliyotlarda keng qo'llanilmoqda.

## SPOTLITE SYSTEM



Isroilning "Rafael Advanced Defense Systems" mudofaa kompaniyasi tomonidan 2000-yillar boshida ishlab chiqilgan *SpotLite* tizimi 2005-yilda ommaga taqdim etildi. Oradan ikki yil o'tib, uning yanada takomillashgan *SpotLite-M* va *SpotLite-P* versiyalari yaratildi. Bu tizim yengil piyoda askarlarining o'q otish nuqtalarini aniqlash, ularni lokalizatsiya qilish va tezkor ravishda bartaraf etish imkonini beruvchi ilg'or elektron-optik majmua sifatida e'tirof etiladi.

**SpotLite** merganlar va boshqa o'q otuvchi qurollar joylashuvini aniqlashda yuqori samaradorlikka ega. U qisqa vaqt ichida dushman pozitsiyasini aniqlab, aniq koordinatalarni taqdim etadi. Bu esa merganlar o'z pozitsiyalarini o'zgartirishga ulgurmasidan oldin ularni zararsizlantirish imkonini yaratadi. Tizimning yana bir muhim jihati uning ixchamligi: u ikki nafar askar tomonidan boshqariladi.

Mazkur tizim multi-sensor texnologiyalariga asoslanadi. Unda termal datchiklar, optik kameralar, lazer masofa o'lchagich, GPS va kompyuter tahlili uyg'unlashgan holda ishlaydi. Natijada o'q otilgan nuqta bir soniya ichida aniqlanib, uning aniq koordinatalari belgilanadi. *SpotLite 360* darajali kuzatuv imkoniyatiga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida bir nechta o'q otish manbalarini yuqori aniqlikda aniqlay oladi.

Bugungi kunda ushbu kompleks zamonaviy jangovar tizimlarga to'liq integratsiyalashgan bo'lib, eng ilg'or counter-sniper platformalardan biri sifatida baholanmoqda.

## PILAR V



Fransiya Mudofaa agentligi (DGA) bilan hamkorlikda "Metravib Defence" kompaniyasi tomonidan mazkur tizimning dastlabki namunasi 1990-yilda ishlab chiqilgan. Keyingi yillarda olib borilgan izchil takomillashtirish ishlari natijasida 2015-yilga kelib uning beshinchi avlodi – *PILAR V* yaratildi va Fransiya Qurolli Kuchlari ixtiyoriga topshirildi.

**PILAR V** – bu zamonaviy *counter-sniper* tizim bo'lib, akustik, ya'ni ovoz yordamida o'q otish nuqtasini aniqlab, koordinatalarini ko'rsatadi. Tizim zirhli transport vositalarini, shuningdek avtomobil texnikalarini kichik kalibrli o't ochish qurollaridan, RPGlar va minomyotlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan. U avtomobil tomiga o'rnatilgan tetraedral akustik massiv, shuningdek u o'qning kelib chiqishi va identifikatsiyasini ko'rsatuvchi ekrandan iborat. **Tizim bir soniya ichida o'q otish nuqtasi koordinatasini azimut bo'yicha 2 gradus va balandlik bo'yicha 3 gradusgacha aniqlikda ko'rsatadi.**

Tizim odatda, 4 ta mikrofon orqali ishlaydi. O'q uzilgan vaqtda bu mikrofonlar o'q tovushini turli vaqtlarda qabul qiladi va vaqt farqlarini taxlil qiladi.

Tizim qayerdan o'q uzilganini topadi va ekranga yoki avtomatik qurol tizimiga uzatadi. Ushbu tizim shahar janglarida samarali hisoblanib, Fransiyaning "Griffon" va "Jaguar" zirhli mashinalariga o'rnatilgan.

## BOOMERANG SHOT DETECTION SYSTEM



**Boomerang Shot Detection System** – AQSh Mudofaa ilg'or tadqiqotlar agentligi (DARPA) hamkorligida "Raytheon BBN Technologies" tomonidan 2005-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, bugungi kunda keng qo'llanilayotgan eng mashhur *counter-sniper* tizimlaridan biri hisoblanadi.

Transport vositasining orqa tomoniga o'rnatiladigan mazkur tizim ovoz yordamida o'q otish nuqtasini aniqlaydi. Unda yettita kichik mikrofon sensorlar mavjud bo'lib, ular zarba to'lqini va otish ovozi turli vaqtlarda ushlaydi. Tizim ma'lumotlarni tahlil qiladi va o'qning kelayotgan yo'nalishini va o'q otuvchigacha bo'lgan masofani bir soniya ichida aniqlaydi. Tizim ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida ekran orqali vizual tasviri va kamay yordamida ovoz ko'rinishida beradi.

**Tizim oddiy va ishonchli bo'lib, ekstremal ob-havoda, ochiq maydonda va shahar sharoitida, turg'un yoki harakatlanuvchi texnikalarda bo'lishidan qat'i nazar samarali ishlaydi.** *Boomerang* tizimi keng tarqalgan va jangovar harakatlarda sinovdan o'tgan counter-sniper tizimlardan biri hisoblanadi. U Iroq va Afg'oniston hududlarida harbiy operatsiyalarda keng qo'llanilgan.

## SNIPER-IR



*Sniper-IR* tizimi – bu zamonaviy harbiy kuzatuv va nishonga olish texnologiyasi bo'lib, u infraqizil (*IR – infrared*) spektrdan foydalanadi. Asosan, merganlar va maxsus kuchlar tomonidan kechasi yoki yomon ko'rinish sharoitida nishonni aniqlash uchun ishlatiladi.



*Sniper-IR* texnologiyasi AQSh, Isroil, Buyuk Britaniya va Fransiya kabi rivojlangan davlatlar tomonidan yillar davomida takomillashtirilib borildi.

**Sniper-IR** – bu oddiy optik nishonga olish moslamasiga o'xshash qurilma emas. U issiqlikni aniqlovchi sensorlar orqali ishlaydi va nishonni issiqlik asosida topadi. Tirik mavjudotlar o'zidan chiqaradigan issiqlikni qurilma IR sensor yordamida aniqlaydi va bu signalni tasvirga aylantiradi. **Mergan ekran orqali kechasi yoki ko'rinishi qiyin tumanli sharoitlarda hatto daraxt, tutun yoki kamuflyaj ortidagi nishonni ham ko'ra oladi.** Unda lazer nurlari yordamida masofani aniqlash imkoniyati mavjud.

Qurilma zamonaviy jang maydonida snayperlar uchun juda muhim aslaha bo'lib, u ko'rinmaydigan nishonlarni aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, tungi operatsiyalarda va murakkab sharoitlarda uning ahamiyati juda katta.

## ASELSAN SEDA 100-L-C



**SEDA 100-L-C** – Turkiyaning "ASELSAN" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan akustik, ya'ni ovoz yordamida ishlaydigan tizim bo'lib, snaryad (*o'q*) otilgan yo'nalishini va o'q otuvchining joylashuvini topish va otuvchiga taqdim etish uchun mo'ljallangan. U merganga qarshi taktik harakatlar va qo'shin himoyasi uchun ishlatishga mo'ljallangan. Tizim

2010-yilning boshida ishlab chiqarilgan va 2015-yilga kelib, Qurolli Kuchlarda amaliy qo'llanila boshlangan. **Tizim mikrofonlar orqali o'qning portlash ovozi va zarba to'lqinini aniqlaydi. Ma'lumotlarni TDOA algoritmi orqali hisoblaydi.** Mergan yoki otuvchi yo'nalishini aniq vaqt rejimida topadi va GPS xaritada joylashuvini ko'rsatadi. Tizim tuman, yomg'ir va qor sharoitida, shuningdek shovqinli jang maydonida ham ishlaydi. U ovoz tezligidan tez uchadigan o'qlarni 1,5 soniyadan kam vaqt ichida aniqlaydi. O'q otilgan joyni 95 foizgacha aniqlikda ko'rsatadi. Yo'nalish va balandlik xatosi 5 gradusdan kam, masofa ko'rsatish xatoligi esa 20 foizdan oshmaydi.

**Kapitan Baxtiyor SHOYQULOV,**  
Mudofaa vazirligi  
Merganlar tayyorlash  
markazi katta o'qituvchisi

## Tavsiyanoma – muhim imtiyoz

Bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson qadri, ayniqsa Vatan finchligi va xalq osoyishtaligini ta'minlash yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar zahirida ham avvalo inson manfaatlarini, yoshlarning baxtli kelajagi va ularning sifatli ta'lim olishi uchun mustahkam zamin yaratish maqsadi mujassamdir.

Ana shunday ezgu sa'y-harakatlarning amaliy ifodasi sifatida Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on hamda Navoiy garnizonlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning farzandlariga respublika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun belgilangan imtiyozli tavsiyanomalar tantanali ravishda topshirildi. Mazkur tadbir nafaqat yoshlar hayotidagi muhim voqea, balki harbiy oilalarga bo'lgan e'tibor va ehtiromning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi.

Tantanali marosimlarda okrug qo'shinlari qo'mondonining

## KELAJAKKA YUKSAK ISHONCH



o'rinbosarlari, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, yoshlar, ta'lim sohasi vakillari hamda jamoatchilik faollari ishtirok etdi. Tadbir davomida yangragan samimiy tabriklar, ezgu tilaklar va dil so'zlari barchada ko'tarinki ruh uyg'otdi.

So'zga chiqqanlar tomonidan bugungi kunda mamlakatimizda harbiy xizmatchilar va ularning oilalariga qaratilayotgan yuksak e'tibor haqida alohida to'xtalib o'tildi. Zero harbiy xizmat mardlik, jasorat va fidoyilik timsolidir. Ona Vatan himoyasi yo'lida xizmat qilayotgan insonlarning oila a'zolariga g'amxo'rlik ko'rsatish esa davlatning ularga bo'lgan yuksak hurmatining ifodasidir.

Ta'kidlanganidek, Prezidentimiz rahnamoligida yosh avlodning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallashi, ilm-fan cho'qqilarini zabt etishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi universitet va institutlarning tashkil etilishi, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan grant va imtiyozlar buning amaliy tasdig'idir.

Tadbir davomida bugungi kunda yoshlarni Vatanga muhabbat, sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekani alohida qayd etildi. Harbiy oilalarda ulg'ayayotgan yoshlar esa ana shu fazilatlarini bolaligidan qalban his

etib voyaga yetmoqda. Chunki ular ota-onalarining mashaqqatli va sharafli xizmatini ko'rib ulg'ayadi, Vatan oldidagi burch naqadar ulug' ekanini chuqur anglaydi. Shu ma'noda ularga berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar kelgusida mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan yetuk mutaxassislarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tavsiyanoma olgan yoshlar ham o'z navbatida ularga bildirilgan yuksak ishonchni oqlash, puxta bilim olib, kelajakda xalq va Vatan manfaatlariga sidqidildan xizmat qiladigan yetuk mutaxassis bo'lib yetishish istaklarini bildirdi.

Yurtimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning intilish va tashabbuslarini rag'batlantirish borasida olib borilayotgan tizimli ishlar ham mamlakatimizning ertangi kuni yanada porloq bo'lishiga xizmat qilmoqda. Bugun harbiy xizmatchilar farzandlariga berilayotgan bunday e'tibor ertaga yurt ravnaqiga xizmat qiladigan minglab bilimli, fidoyi va vatanparvar yoshlarning kamol topishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki Vatan taraqqiyoti ilmiy avlod qo'lida, tinchlik va osoyishtalik esa fidoyi harbiylar xizmatining samarasidir.

Tadbir yakunida tavsiyanomalar egalariiga tantanali ravishda topshirilib, ularga kelgusi o'qish va hayot yo'lida ulkan muvaffaqiyatlar tilandi. Samimiy va ko'tarinki ruhda o'tgan ushbu tadbir barchada katta taassurot qoldirdi.

**Parvina ABDOHAMIDOVA,**  
Markaziy harbiy okrug  
matbuot xizmati bosh  
mutaxassisi

## YOSH AVLOD kamoloti yo'lida



Sharqiy harbiy okrug tasarrufidagi harbiy qismlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning farzandlariga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanomalarni topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlarning yana bir yorqin ifodasi bo'lgan mazkur marosimda okrug qo'mondonligi vakillari, harbiy xizmatchilar, yoshlar hamda ularning ota-onalari ishtirok etdi.

Tadbir davomida harbiy xizmatni sidqidildan ado etib kelayotgan harbiy xizmatchilar farzandlariga imtiyozli tavsiyanomalar tantanali ravishda topshirildi. Har bir yoshga kelajakdagi o'qish va hayot yo'lida ulkan muvaffaqiyatlar tilandi.

– Bugun qizimga ham imtiyozli tavsiyanoma topshirilganidan

juda xursandman, – dedi podpolkovnik A'zam Ikromov. – Bu nafaqat farzandimiz, balki butun oilamiz uchun quvonchli voqea bo'ldi. Harbiy xizmatchilar oilalariga yaratilayotgan bunday imkoniyatlar bizni yanada mas'uliyat bilan xizmat qilishga undaydi.



Tavsiyanoma olgan yoshlar ham o'z quvonchlarini yashirmadi. Ular bildirilayotgan ishonchni oqlash, puxta bilim olib, kelgusida yurt ravnaqi va xalq farovonligi yo'lida munosib xizmat qilishlarini ta'kidladi.

Tadbir davomida mehmonlar yoshlarga kelajakda tanlagan kasbining yetuk egasi bo'lish hamda Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan fidoyi insonlar bo'lib yetishishlari uchun samimiy tilaklar bildirdi.

Bunday e'tibor va g'amxo'rlik yoshlarning ertangi kunga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, ularni ulkan maqsadlar sari ruhlantirish bilan birga harbiy xizmatchilar oilalarining jamiyatdagi o'rni va nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qilayotgani bilan qimmatli bo'lmoqda.

**Gulihumo MAJIDOVA,**  
Sharqiy harbiy okrug matbuot  
xizmati bosh mutaxassisi

## Bugunimiz qahramonlari

O'tgan 2025-yilning rasmiy yakunlari e'lon qilinishi bilan World Boxing tashkiloti barcha vazn toifalari bo'yicha dunyo reytingini jamoatchilikka taqdim etdi. Ushbu ro'yxatda yurtimiz bokschilari yana bir bor o'zining yuqori mahorati, barqaror natijasi va xalqaro arenadagi nufuzini namoyish etdi.

Ayollar va erkaklar o'rtasidagi deyarli barcha vazn toifalarida yurtimiz vakillari yuqori pog'onalardan joy oldi. Ayniqsa, 90+ kilogramm vazn toifasida 2-o'rinni qo'lga kiritgan Jahongir Zokirovning natijasi e'tiborga molik. Bugungi qahramonimiz – aynan shu yutuq sohibi, boks bo'yicha O'zbekiston, Osiyo va jahon chempioni kichik serjant Jahongir Zokirov.

**BOKS QO'LQOPIDA ULG'AYDIM**

– Esimni tanibmanki, boks qo'lqopini kiyib ulg'aydim. Chunki kunim dadam murabbiyligida o'tkaziladigan mashg'ulot zalida o'tardi. Boksga juda mehr qo'yganman. Sport turi otamerosligini hisobga olsam, keyingi kasb men uchun doim egnimga harbiylik libosini kiyish bo'lgan. Sport ortidan orzu qilgan kasbning egasiga ham aylandim.



# OG'IR VAZNNING MUAMMOSI – OG'IRLIK

**MAG'LUBIYAT KUCH BERADI**

– Og'ir vaznning eng katta muammosi – og'irlik. Vazn qancha katta bo'lsa, tezlik shuncha pasayadi. Yakkakurash turlarida tezlik birinchi o'rinda turadi. Himoya uchun ham, hujum uchun ham tezlik juda muhim. Ringga hech kim mag'lubiyat uchun ko'tarilmaydi. Har bir musobaqadan oldin 5, 10 va hatto 15 kilogrammgacha vazn tashlashimga to'g'ri keladi. Nafs ustunlik qilib, turli taomlardan tanovul qilib qo'yganimizdan keyin undan qutulish choralarini ham qilishimizga to'g'ri keladi-da. Buning yaxshi va yomon tomoni bor. Yengillikda tezlik bo'lsa, vazn yo'qotishda og'irliklar ham bo'ladi. Sportning mana shunday jihatlari ham bor. Bunday holatlarga ko'nikkanmiz.

**MOTIVATSIYA**

– Ringga tushishdan avval eng ko'p o'ylaydiganim – sharmanda bo'lishdan qo'rquv. Inson turli holat va vaziyatlardan ta'sirlanadi. Men musobaqadan oldin va keyin ham asosiy motivatsiyani onamdan olaman. Natijam qanday bo'lishidan qat'i nazar, "Jarohat olmadingmi, bolam?" degan mehrli so'zlari menga juda katta kuch beradi. Qolaversa, xizmat joyimdagi ustozlar, yoshi katta akalardan va qo'mondonimizdan ham motivatsiya olaman. Aslida qo'mondonimiz ham sport bilan shug'ullangani uchun holat va kamchiliklarimiz haqida kerakli maslahatlar bera oladi.

**JAHL – MAG'LUBIYAT GAROVI**

– Har qanday inson o'zini himoyalash uchun jang qilish qobiliyatiga ega. Ammo bunday ko'cha janglari texnik va taktik hisoblardan xoli. Uning asosi jahl va alamga quriladi. Shuning

uchun jang natijasi xunuk holat bilan tugaydi. Sport esa ma'lum qoidalar ustiga qurilgan. Ammo yakkakurash turlarida ham sportchining jahlga erk berishi mag'lubiyat bilan yakunlangan holatlar juda ko'p uchraydi. Har qanday holatda ham jahlni jilovlay olish kerak. Ringda raqib psixologik ta'sir o'tkazib, ruhiy muvozanatni buzishga harakat qiladi. Ammo bunday hiylalarga e'tibor bermasdan, aqlni yo'qotmaslikka harakat qilaman.

**O'ZBEK BOKS MAKTABI**

– Mana, bir necha yildirki, o'zbek yigit-qizlari boks bo'yicha o'tkazilayotgan jahon arenalarida yuqori o'rinnlarni zabt etib kelmoqda. Raqobat ham shunga monand ancha yuqori. Reytingda yuqori darajaga chiqish osonmas, ammo uni ushlab turish undan-da qiyin.

**KAMTARGA KAMOL**

– O'zbekiston bokschilari qanchalik yuqori natijani zabt etmasin, ularning barchasi birdek kamtarin. Ikki karra Olimpiada chempioni bo'lgan Bahodir Jalolovning ham kamtarinligiga havas qilaman. Sodda va samimiy inson. Aslida "yulduzlik kasali"ga chalinishi mumkin bo'lgan sportchilarni ham murabbiy To'lqin Qilichev oldindan sezib, "kamtarlik vaksinasi" bilan "emlaydi". Qarabsizki, hammasi joyida. Aslida murabbiylarning barchasi yaxshi inson va o'z ishining mutaxassislari. To'lqin aka vaqti kelsa, do'st, otalarcha mehribon, ammo, joyi kelganda, qattiqqo'l murabbiy. Intizomni yoqtiradi va barchani tartibga rioya qilishga majbur etadi. To'lqin Qilichevning tutgan yo'li qanchalik to'g'riligini natijalardan ham bilsa bo'ladi.

**QO'LQOP HAJMIDAGI FARQ**

– Havaskor boksdagi qo'lqop bilan professional boksdagi qo'lqop o'rtasida ancha farq bor. Professional boksdagi qo'lqop ancha kichik hajmga ega bo'lgani bois undan himoyalanih mushkulroq. Shuning uchun ham professional boksdagi nokdaun va

nokautlar ko'proq uchraydi. Xuddi shu singari jarohatlar ham.

**JAROHATLAR**

– Sportchining yana bir dushmani – jarohat. Yakkakurashlar, ayniqsa boksga jarohat olish darajasi juda yuqori. Yengil olingan tan jarohati 1-2 haftada tuzalsa, og'irroq'i 2-3 oygacha cho'zilishi mumkin. O'tgan yili Liverpoolda bo'lib o'tgan boks bo'yicha jahon chempionati finalida qozog'istonlik Oybek O'ralboyga qarshi ringga ko'tarildim. Jangni 1-raundda 3:2, ikkinchi raundda 4:1 hisobida o'z foydamga hal qilib bo'lgandim. Ammo superfinal yakunida hakamlar g'alabani Qozog'iston vakiliga berdi. Ungacha turnirdagi ishtirokimni jazoirlik Mourad Kadini mag'lub etish bilan boshlagandim, keyingi bosqichlarda germaniyalik Nikita Putilov, norvegiyalik Omar Shiha va xitoylik Danabiyeke Bayikevuzidan ustun kelib, finalga chiqqandim. O'sha jangda olgan jarohatim sabab ikki oy davomida ringga ko'tarila olmadim: quloq pardasi yirtilgan, burnim qiyshaygan. Jarrohlik amaliyotlari o'tkazildi. Natijada Dubayda bo'lib o'tgan "IBA – 2025" boks bo'yicha jahon chempionatida ishtirok eta olmadim.

**HECH QACHON YENGILMAGAN BOKSCHI**

– Har bir kasbda bo'lgani singari sportda ham ergashadigan, havas qiladigan va unga o'xshashga harakat qiladigan "kumir"i bo'ladi. Men o'zbek bokschilarini kamsitmagan holda ukrainalik Aleksandr Usinga havas qilaman. U og'ir vazn toifasida havaskorlar o'rtasida ham, professionallar orasida ham mutlaq chempion. Biror marotaba mag'lubiyatga uchramagan. Boks sporti bo'yicha barcha yutuqlarga erishgan. Havaskorlar o'rtasida Olimpiada chempioni, professionallar orasida oltita kamar sohibi.

**Sherzod SHARIPOV**  
"Vatanparvar"

Ajdodlar matonati – yoshlarga ibrat

# ASIRLIKDA SINMAGAN jasorat

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng dahshatli fojialardan biri sifatida millionlab insonlar taqdirini o'zgartirib yubordi. Bu urush xalqlar boshiga cheksiz kulfat, ayriliq va iztiroblarni olib keldi. Jang maydonlarida minglab insonlar halok bo'ldi, millionlab oilalar yaqinlaridan ayrildi. Biroq ana shunday og'ir sinovli davrda ham insoniyat o'zining eng yuksak fazilatlarini – mardlik, sabr-toqat, matonat va insonparvarlikni namoyon eta oldi.

O'zbekiston xalqi ham urush yillarida frontorti va jang maydonlarida ulkan jasorat ko'rsatdi. Ana shunday mard insonlardan biri Vahob Ibragimov edi. U 1922-yil 15-mart kuni Toshkent shahrida tavallud topgan. Yoshligidan jasur va qat'iyatli bo'lib ulg'aygan Vahob 19 yoshida ko'ngilli ravishda armiya safiga qo'shiladi.

Qisqa vaqt ichida serjantlar maktabini tamomlab, frontga yo'l oladi. Bu esa uning Vatandagi burchini chuqur his qilganidan dalolat beradi. 1942-yilda Xarkov uchun bo'lgan qonli janglarning

birida serjant Vahob Ibragimov og'ir yaralanadi va dushman qo'lga asir tushadi. Asirlik esa urushning eng dahshatli sinovlaridan biri edi.

Konslagerlardagi hayot inson bardoshini sinovdan o'tkazardi. Ochlik, sovuq, kasallik va mashaqqatli mehnat mahbuslarning tinkasini quritardi. Ko'plab insonlar bunday og'ir sharoitda hayotdan umidini uzgan edi. Ammo Vahob Ibragimov ana shunday murakkab vaziyatda ham o'zining insoniy qadr-qimmatini, sabr-toqati va matonatini yo'qotmadi. Uning qalbidagi muhabbat va ona

yurtga qaytish umidi yashash uchun kuch bag'ishlardi. U eng og'ir damlarda ham insoniylik fazilatlarini saqlab qola oldi. Lagerdagi og'ir hayot Vahob Ibragimovni turli millat vakillari bilan yaqindan tanishtirdi. Ana shunday insonlardan biri Frederik Bergstrem edi. Frederik va Vahob o'rtasidagi do'stlik urushning eng mudhish kunlarida ham insoniylik yo'qolmaganini ko'rsatadi.

Bir kuni Frederik Vahobning yoniga kelib, o'zini tanishtiradi va unga pechenye,

baliq hamda tamaki solingan qutini beradi. Vaqt o'tishi bilan ular bir-biriga suyanch bo'lib qoladi. Frederik kasal bo'lib qolganida, hatto nonni ham yuta olmay qoladi. Shunda Vahob unga yordam beradi, uni qo'llab-quvvatlaydi. Bu oddiy holatdek tuyulishi mumkin, ammo urush va asirlik sharoitida bunday insoniy mehr katta jasorat edi. Asirlikdagi hayot insonni nafaqat jismonan, balki ruhiy jihatdan ham sinardi. Vahob Ibragimov esa barcha qiyinchiliklarga bardosh berib,

mardona yashashda davom etdi. Uning hayoti inson irodasining naqadar kuchli ekanini namoyon etadi.

1945-yilning bahorida lager yaqinidagi portlashlar tufayli mahbuslar turli tomonga tarqalib ketadi. Frederik shimol tomonga yo'l oladi, Vahob Ibragimov esa ona yurtiga qaytishga muvaffaq bo'ladi. Urush tugagan bo'lsa-da, uning qalbidagi urushning og'ir xotiralari umr bo'yi saqlanib qoladi. Urushdan keyingi yillarda Vahob Ibragimov tinch hayot kechiradi. Uning butun hayot yo'li jasorat, sabr va Vatanga sadoqat timsoliga aylandi. U 1996-yilda Toshkent shahrida vafot etdi.

Bugungi avlod urush qatnashchilari va og'ir sinovlarni boshdan kechirgan insonlarning hayot yo'lini unutmashligi kerak. Chunki bugungi tinch va osoyishta hayot minglab insonlarning jasorati, matonati va fidoyiligi evaziga qo'lga kiritilgan. Vahob Ibragimov kabi insonlarning hayoti esa yoshlar uchun mardlik, insonparvarlik va Vatanga muhabbat maktabi bo'lib qoladi.

**Og'abek SA'DULLAYEV,  
O'zJOKU talabasi**

Fidoyilikning yorqin timsoli



## Boyovutlik QAHRAMON QIZ

Vatandagi burch va uning ozodligi, finchligi, har qarich yerini himoya qilish mas'uliyati kichik serjant Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, Sovet Ittifoqi Qahramoni Yelena Stempkovskayani ham cheflab o'tmadi.

Yelena Stempkovskaya 1921-yilda Belarusning Minsk viloyati Soligorsk tumani Mazurshina qishlog'ida oddiy dehqon oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Konstantin Stempkovskiy Port-Artur mudofaasi va Fuqarolar urushi qatnashchisi bo'lgan. Vatandagi burch va jasorat ruhida tarbiya topgan Yelena yoshligidan bilimga chanqoq, faol va fidoyi qiz bo'lib o'sdi.

1933-yilda Stempkovskiy oilasi Sirdaryo viloyatining

Boyovut tumaniga ko'chib keladi. Bu yillarda hududda paxtachilik jadal rivojlantirilayotgan edi. Yelena maktabda yaxshi o'qidi, jamoat ishlarida faol qatnashdi va o'qituvchi bo'lishni orzu qildi. Maktabni tugatgach, Toshkent pedagogika institutining Tarix fakultetiga o'qishga kiradi. Talabalik davrida u yoshlar yetakchisi etib saylanadi.

1941-yilning yozida Yelena Moskvaga borishni rejalashtirgan edi. Ammo taqdirning sovuq hazillaridan biri – 22-iyun kuni fashistlar Sovet Ittifoqiga hujum qildi va Ikkinchi jahon urushi boshlandi. Bu voqea millionlab insonlar qatori Yelenaning ham hayotini tubdan o'zgartirdi. U ko'ngilli ravishda frontga ketishga qaror qildi. 1941-yilning iyul oyida Toshkentdagi radiotelegrafchilar kursiga yuborildi va qisqa muddatda harbiy aloqa mutaxassisi bo'lib yetishdi.

1942-yilning yanvaridan boshlab Yelena Janubi-g'arbiy front tarkibidagi 76-o'qchi diviziyaning 216-o'qchi polki batalyonida radist sifatida xizmat qila boshladi. U jang maydonida polk shtabi bilan aloqa o'rnatib, buyruqlar va jangovar ma'lumotlarni uzatardi. Harbiy safdoshlari uni jasur, qat'iyatli va mas'uliyatli inson sifatida hurmat qilardi.

1942-yil 26-iyunda Belgorod viloyati Shebekino tumanining Zimovenka qishlog'i yaqinida og'ir jang boshlanadi. Yelena xizmat qilayotgan batalyon dushman qurshovida qoladi. Shunga

qaramay, u oxirgi daqiqagacha polk qo'mondoni bilan aloqa uzilmasligini ta'minlaydi. Jang davomida artilleriya yo'naltiruvchisi halok bo'lgach, Yelena vaziyatni o'z qo'lga olib, dushmanga qarshi o't ochishni boshqarishda yordam beradi.

Hatto u gitlerchilarga qarshi karabinni olib, jangga kiradi va uch nafar dushman askarini yo'q qiladi. Qurshovni yorib chiqish paytida esa batalyonning chekinishini ta'minlash uchun safdoshlari bilan birga kurashadi. Og'ir janglardan so'ng Yelena fashistlar qo'lga asir tushadi. Uni qattiq qiynoq va so'roqlarga duchor qilishadi, undan hech qanday ma'lumot ololmaganlaridan so'ng uning o'ng qo'lini chopishadi. Shunda ham u harbiy sirlarni oshkor etmaydi.

Yelena Stempkovskaya shu qismat bilan mardonavor halok bo'ladi. U Belgorod viloyatining Zimovenka qishlog'idagi Birodarlik qabristoniga dafn etilgan. U urushda qahramonlik ko'rsatgan ilk jangchi ayollardan biri sifatida tarixda qoldi va uning nomi hozirgacha sharaf bilan eslanadi.

Bugungi kunda Boyovut tumanining Boyovut-1 qishlog'i Markaz mahallasida uning sharafiga 2012-yilda o'zi o'qigan maktab hududida byusti o'rnatilgan. Uning jasoratiga bag'ishlab "Kulrang shinel kiygan qiz" nomli qissa ham yozilgan. Yelena Stempkovskayaning hayoti jasorat, matonat, Vatanga sadoqat va insoniy fidoyilikning yorqin timsolidir.

**Sardorbek QOSIMOV,  
O'zJOKU talabasi**

Qadriyat

Tarix va bugun

## TARIXGA SAYOHAT – AJDODLAR MEROSIGA EHTIROM



18-may – Xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan Termiz shahrida joylashgan Termiz san'at va madaniyat muzeyi, Termiz arxeologiya muzeyi hamda Denov tumanidagi Surxondaryo milliy qadriyatlar muzeyiga sayohat tashkil etildi.

Unda Termiz va Xayrabad garnizonlarida xizmat qilib kelayotgan harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, "Vatan tayanchi" otryadi yoshlari hamda otaliqqa olingan yoshlar ishtirok etdi. Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad yosh avlod va harbiy xizmatchilarning milliy tariximiz, boy madaniy merosimiz hamda ajdodlarimiz qoldirgan bebaho ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini yanada mustahkamlashdan iborat.

Tadbir doirasida ishtirokchilar dastlab San'at va madaniyat muzeyiga borib, u yerda milliy san'at namunalari, qadimiy madaniy meros obyektlari va xalq amaliy san'atiga oid ekspozitlar bilan tanishdi. Shundan so'ng Arxeologiya muzeyida bo'lib, yurtimizning qadimiy tarixi

va sivilizatsiyasini o'zida aks ettiruvchi arxeologik topilmalar, qadimiy qo'lyozmalar hamda noyob tarixiy buyumlar haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Sayohat davomida ishtirokchilar Denov tumanidagi Surxondaryo milliy qadriyatlar muzeyida ham bo'ldi. Milliy urf-odat va an'analarimizni o'zida mujassam etgan ekspozitlar va milliy hunarmandlik namunalari barchada katta taassurot qoldirdi.

Ishtirokchilar mazkur sayohat orqali yurtimiz tarixi va madaniy merosiga oid bilimlarini boyitib, milliy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg'ularini yanada mustahkamladi.

**III darajali serjant Akbar AHMEDOV**  
Termiz garnizoni



## Islom sivilizatsiyasi MARKAZI BO'YLAB

Bu maskan nafaqat me'moriy jihatdan betakror majmua, balki Oltin asr va Yangi O'zbekiston o'rtasidagi mustahkam ma'naviy ko'prikdir. U o'tmishning boy ilmiy-ma'rifiy merosini bugungi taraqqiyot yo'li bilan uyg'unlashtirib, kelajak avlod uchun ilhom manbaiga aylanmoqda. Bunda tarix nafaqat saqlanadi, balki u yangi mazmun va zamonaviy yondashuvlar asosida qayta jonlanadi.

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi boshqaruv apparati harbiy xizmatchilari uchun poytaxtimizda joylashgan, noyob arxitektura yechimlari va islom tarixi bilan boyitilgan Islom sivilizatsiyasi markaziga ekskursiya tashkil etildi.

Sayohat davomida ishtirokchilar qurilishi qariyb 9 yil davom etgan ushbu muhtasham markaz bilan yaqindan tanishdi. Ayniqsa, 2 000 ta ekspozitni o'z ichiga olgan muzey, boy kutubxonada hamda nodir qo'lyozmalar fondi harbiylarda katta qiziqish uyg'otdi. Ushbu ekspozitsiyalar

orqali O'zbekiston hududida islomgacha bo'lgan davrdan tortib islom sivilizatsiyasi rivojigacha bo'lgan tarixiy jarayonlar izchil va ta'sirchan tarzda namoyon etilgan.

Markazda namoyish etilgan noyob ekspozitlar zamonaviy raqamli texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'unlashtirilgan e'tiborga molik. Bu esa tashrif buyuruvchilarga nafaqat tarixni ko'rish, balki uni his qilish, anglash va tahlil etish imkonini yaratadi. Ilm-fan, ta'lim, tarbiya, madaniyat va ma'rifat orqali yurtimizda asrlar davomida shakllangan sivilizatsion taraqqiyot yo'li aynan shu yerda



yaqqol va tabiiy tarzda aks ettirilgan.

Tashrif davomida harbiy xizmatchilar zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt asosida yaratilgan interaktiv ekspozitsiyalar bilan tanishib, o'zlarini qiziqtirgan savollariga soha mutaxassislaridan batafsil javob oldi. Bu esa ularning nafaqat bilim doirasini kengaytirdi, balki milliy merosimizga bo'lgan hurmat va e'tiborini yanada oshirdi.

**Shahnoza SULTONOVA,**  
TOQQQ matbuot xizmati  
bosh mutaxassisi

Kun doirasida

## YOSHLAR BILAN UCHRASHUV

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan "Yoshlar kuni" doirasida Bektemir tumanidagi umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari va mahalla yoshlari bilan uchrashuv o'tkazildi.

Respublika televideniye va radio texnikumida o'tgan ochiq muloqotda yurtimizda yoshlarga bo'lgan alohida e'tibor va g'amxo'rlik, barcha sohada, shu jumladan harbiy jabhada yaratilgan keng ko'lamli imtiyoz va imkoniyatlar haqida atroflicha to'xtab o'tildi.

Buning samarasida bugun yoshlarimizning shukronalik hissi bilan va buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo'lish yo'lidagi samarali mehnati, fan olimpiadalari bo'ladimi, sport, ilmiy-texnikaviy yoki boshqa soha bo'ladimi, qo'yingki, har yo'nalishda ko'rsatayotgan yuksak natijalari va erishayotgan yutuqlari Vatanimiz nufuzini yanada ko'klarga ko'tarayotgani e'tirof etildi.

Jarayonda qatnashchilarning qiziqishlari, maqsadlari va mulohazalari o'rganildi, ularni qiziqtirgan masalalarni ijobiy hal etish yuzasidan aniq tavsiyalar berildi.

Shuningdek, tashabbuskorligi, bilimi va yuqori natijalari bilan namuna ko'rsatib kelayotgan yoshlardan bir guruhi esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Tadbir davomida o'quvchi-yoshlar bilan birgalikda texnikum hududidagi kasbga tayyorlash markaziga tashrif buyurildi. Bu yerda yoshlar turli kasblarga tayyorlash uchun mo'ljallangan zamonaviy o'quv xonalari, ichki va tashqi amaliyot o'tash joylari hamda qulay sharoitlar bilan yaqindan tanishtirildi.

**Adliya mayori Farrux SAYSULTANOV,**  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bo'lim boshlig'i

Ijtimoiy himoya

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari rahbariyati bilan hamkorlikda olis hududlarda ommaviy sayyor qabullar o'tkazib kelinmoqda.

## GALDAGI QABUL

Bu gal Xorazm viloyatining Shovot tumanida o'tgan ommaviy sayyor qabul ham shular jumlasidan. Unda harbiy xizmatchilar, xodimlar, ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar ishtirok etdi.

Dastlab ochiq muloqotda yurtimizdagi islohotlarning hayotiy ifodasi, Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining alohida e'tibori va g'amxo'rliги natijasida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun yaratilgan, shuningdek yangi joriy etilgan hamda joriy etilayotgan keng imkoniyat va imtiyozlar haqida atroflicha so'z yuritildi.

So'ngra soha mutaxassislari qatnashuvida murojaatlar tinglanib, ularni joyning o'zida hal etish choralari ko'rildi. Shu asnda huquqiy maslahatlar ham berilib, ko'rib chiqish muddat talab etadigan murojaatlar nazoratga olindi.

Jarayonda tashkil etilgan mehnat yarmarkasi esa harbiy xizmatchilarning oila a'zolari va muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan yoshlarga o'zlarini qiziqqan kasb va mutaxassislikdagi bo'sh ish o'rinlarini tanlash uchun ayni muddao bo'ldi.

**Adliya podpolkovnigi Umid NIZAMOV,**  
Urganch harbiy prokuratori

Sayohat

## MOZIYGA SAYR

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, Toshkent va Chirchiq harbiy prokuraturalari xodimlari hamda ularning farzandlari ishtirokida Islom sivilizatsiyasi markaziga sayohat tashkil etildi.

Jarayonda markazda yaratilgan zamonaviy sharoitlar va ilg'or texnologiyalar asosida tashkil etilgan ekspozitsiyalar bilan tanishildi. Ayniqsa, sun'iy intellekt yordamida jonlantirilgan ko'rgazmalar barchada katta qiziqish uyg'otdi.

Har bir zalda go'yo o'tmishda yurgandek tarixiy ma'lumotlarni nafaqat ko'rish, balki his etish imkoniga ega bo'lishdi.

Xodimlar davrlar osha, shu jumladan Birinchi va Ikkinchi Renessansga bag'ishlangan bo'limlar, "Yangi O'zbekiston – Yangi Renessans poydevori" ekspozitsiyasi, xullas, har bir bo'lim bilan tanishib, buyuk ajdodlarimizning boy va shonli merosi haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'ldi.

**Adliya podpolkovnigi Alisher QURBONOV,**  
Toshkent harbiy prokuraturasi yordamchisi

Jarayon

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Mudofaa vazirligining Xorazm viloyatidagi harbiy tuzilmalarining birida o'rganishlar olib borildi.

## O'rganishlar OLIB BORILDI

Unda xizmat o'tash sharoitlari, tibbiyot xizmati va ta'minot turlari ahvoli, harbiy texnikalar saqlanish holati va faoliyatga doir boshqa masalalarga e'tibor qaratildi.

Yoshlar o'rtasida sportni keng targ'ib etish bo'yicha olib borilayotgan tadbir va mashg'ulotlar o'tkazish uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishildi.

Yakunda mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi.

**Adliya kapitani Mirkamol QO'CHQOROV,**  
Urganch harbiy prokuraturasi katta tergovchisi

Ochiq muloqot

## ANDIJONLIK YOSHLAR BILAN MULOQOT

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov 200 dan ortiq andijonlik yosh bilan ochiq muloqot o'tkazdi.



Baliqchi tumani hokimligida o'tkazilgan tadbirda H. Botirov yig'ilganlarga "Vatanparvar" tashkilotining aholini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlashga doir faoliyati to'g'risida ma'lumot berdi.

"Vatanparvar" tashkiloti respublikamizda haydovchilik kasbiga tayyorlovchi eng ko'p o'quv muassasalariga ega tuzilma hisoblanadi. Tashkilotda fuqarolar ushbu kasbdan tashqari vulkanizatorchi, elektrik-akkumulyatorchi, gaz-elektr payvandchi, avtochilangar, avtoelektrik kasblariga o'qitilishi, shu bilan birga yuk ortuvchi transport, avtogidro-podyomnik, yuk mashinasi krani, g'ildirakli traktor, bitta kovshli ekskavator texnikalarini boshqarish bo'yicha mutaxassislar tayyorlanishi haqidagi ma'lumot ko'pchilikni befarq qoldirmadi.

"Vatanparvar" tashkilotining yosh sportchilari nafaqat respublika, balki MDH, Osiyo va jahon chempionatlarida yuqori o'rinlarni qo'lga kiritayotgani haqidagi ma'lumot ham tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi.

Ochiq muloqot qizg'in savol-javoblar bilan o'tdi. E'tiborlisi, tadbirda ishtirok etgan umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va professional ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari tashkilotning o'quv muassasalarida kasb-hunar egallash va sport bilan shug'ullanish istagini bildirdi.

"Rahbar va yoshlar" uchrashuvi doirasida "Vatanparvar" tashkiloti rahbari Andijon viloyati kengashi tasarrufidagi o'quv muassasalariga yangi 17 ta "Chevrolet Onix" avtomobili va 4 ta "FOTON" yuk mashinasini topshirdi. Endilikda ushbu o'quv avtomobillaridan avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida "B" va "C" toifalari bo'yicha o'qiyotgan fuqarolar amaliy mashg'ulotlarda foydalanadi.

Avtokross, motokross, karting, biatlon, duatlon, pnevmatik quroldan o'q otish, aviamodel, raketamodel va kemamodel sport seksiyalarining ko'rgazmalari tashrif buyuruvchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.

MDH kubogi



## YUKSAK YUTUQ PARVOZ

Rossiya Federatsiyasining Moskva viloyatida "Dronlar poygasi bo'yicha MDH DOSAAF kubogi" musobaqasi o'tkazildi.

Beshta davlat – Rossiya, Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston va Tojikistondan ishtirok etgan 50 dan ortiq sportchi ushbu nufuzli musobaqada o'zlariga birlashtirilgan dronlarning tezkorligini namoyon etdi.

Quvonarlisi, do'stona va murosasiz kechgan MDH kubogi bahslarida "Vatanparvar" tashkiloti sportchilaridan iborat O'zbekiston terma jamoasi mamlakatimiz sharafiga munosib himoya qilib, jamoa hisobidan 3-o'ringa sazovor bo'ldi. Shaxsiy birinchilikda hamyurtimiz Stanislav Smirnov 2-o'rinni egalladi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti jamoasi ushbu sportchilarni samimiy muborakbod etib, kelgusida bundan-da yuksak yutuqlarga erishishlarini tilaydi.

"Shunqorlar" harbiy sport o'yinlari

## "VATANPARVARLIK – OLIY MAQSADIMIZ!"

Mamlakatimiz bo'ylab O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi kubogi uchun "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining hududiy bosqichi jadallik bilan davom etmoqda.



Jumladan, Namangan viloyatida viloyatning tuman va shaharlaridagi umumta'lim maktablari va kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalardan tashkil topgan 14 ta jamoa ishtirok etdi.

Do'stona va murosasiz kechgan bahslarda Chortoq tumani yoshlaridan iborat "Temurbeklar" jamoasining qo'li baland kelib, 1-o'rinni egalladi. Ushbu jamoa endi iyun oyida o'tkaziladigan o'yinlarning final bosqichida viloyat sha'nini himoya qiladi. Ikkinchi o'rin To'raqo'rg'on, 3-o'rin esa Uychi tumanlarining jamoalariga nasib etdi.

Shuningdek, Buxoroda tashkil etilgan viloyat bosqichida Qorako'l tumanining "Qalqon", Samarqandda Pastdarg'om tumanining "Burgutlar" jamoalari g'oliblikni qo'lga kiritib, final bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

Har yili "Vatanparvarlik – oliy maqsadimiz!" shiori ostida o'tkazib kelinayotgan "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarini o'tkazishdan asosiy maqsad yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, chaqiruvga qadar yoshlarni Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishga qiziqishini oshirib borish hamda ularni ruhan va jismonan chiniqtirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

Kelajagimiz bunyodkorlari



## MUNOSIB E'TIBOR VA KENG IMKONIYAT

Toshkent harbiy okrugi tasarrufidagi harbiy qismlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar farzandlariga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanomalarni topshirishga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Mazkur imtiyoz avvalo yillar davomida yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lida fidokorona xizmat qilib kelayotgan harbiy xizmatchilar mehnatini yuksak qadrlash, ularning oilalariga amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishning yorqin namunasidir. Zero Vatan himoyasida turgan insonning oilasi ham davlat e'tiboridan chetda qolmasligi adolat va e'tibor tamoyillarining amaliy ifodasidir.


Tantanali tadbirda okrug qo'mondonligi vakillari, Toshkent harbiy prokuraturasi xodimlari, harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari ishtirok etdi. So'zga chiqqanlar yosh avlodning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi, yurt ravnaqi va mamlakat taraqqiyotida munosib o'rin egallashi bugungi kunning eng ustuvor vazifalaridan biri ekanini alohida ta'kidladi. Shu bilan birga, yoshlarga kelgusi davlat imtihonlarida muvaffaqiyat qozonish tilaklari bildirildi.

Ta'kidlanganidek, bunday imtiyozlar yoshlarda o'z kuchiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, ularni oldilariga qo'ygan maqsadlar sari dadil intilishga undaydi. Ayni paytda bu kabi imkoniyatlar harbiy oilalarda ta'limga bo'lgan qiziqishni oshirib, farzandlarni vatanparvarlik, mas'uliyat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rinda aytish joizki, harbiy xizmatchilar farzandlariga oliy ta'limga kirishda yaratilayotgan imtiyozlar bu nafaqat ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, balki mamlakat kelajagiga qaratilgan muhim e'tibor sanaladi. Zero bilimli, vatanparvar va maqsadli yoshlar yurtimizning ertangi taraqqiyotini belgilab beradigan asosiy kuchdir.

Toshkent harbiy okrugi matbuot xizmati

Xalqaro muzeylar kuni



# OGHIQ OSMON

ostidagi muzey

**Har yili 18-may butun jahonda Xalqaro muzeylar kuni sifatida nishonlanadi. YUNESKO tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi jami muzeylar soni 104 mingtani tashkil etadi. Shulardan 138 tasi O'zbekistonda joylashgan va 2025-yil davomida ularga uyushtirilgan sayohatlar natijasida 5,7 million kishi muzeylar faoliyati bilan yaqindan tanishgan. Raqamlarning 1,9 millioni xorijlik mehmonlar hissasiga to'g'ri kelishi mamlakatimizdagi muzeylar turizm sohasiga munosib hissa qo'shib kelayotganidan dalolat beradi.**

Muzeylar har bir davlatning tarixiy-madaniy qiyofasini ajdodlar jasorati va matonatinini o'zida aks ettirib, o'sha yurtning tashrif qog'ozi sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi. 2020-yil 9-may kuni Toshkent shahrining Olmazor tumanida barpo etilgan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi buning yaqqol misollaridan biridir.

"G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi dunyodagi kam sonli ochiq osmon ostidagi muzeylardan biri, desak, adashmaymiz. U o'z tarkibiga "Shon-sharaf" davlat muzeyi, "Mangu jasorat" va "Matonat madhiyasi" monumentlarini, tarixiy-badiiy ekspozitsiyalarni jamlagan. 2025-yili ular safiga "Millat fidoyilari" yodgorlik majmuasi qo'shildi. Natijada 14,6 gektarni tashkil etuvchi "G'alaba bog'i" ramziy hududlari soni yana bittaga ko'paydi...

Respublika statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotiga ko'ra, yodgorlik majmuasi O'zbekistonning 2025-yil sayyohlar va mahalliy

aholi eng ko'p tashrif muzeylari ro'yxati uchligiga kirgan. 2020-yildan buyon "G'alaba bog'i"ga kelganlar soni 5 milliondan oshgani diqqatga sazovor. Raqamlarga ko'z yugurtirar ekanmiz, yodgorlik majmuasining boshqa muzeylar faoliyatida kamdan kam kuzatiladigan an'anani ko'rishimiz mumkin. Bu - butun xalqimiz tomonidan Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan hamda yuksak qahramonlik namunalari ko'rsatgan ajdodlarimiz xotirasi uchun ko'rsatilgan yuksak ehtirom an'anasi. Bu - ularning jasorati va fidoyiligiga hurmat bajo keltirish yo'lidagi muqaddas burch an'anasi. Shuning uchun Vatan ozodligi va bugungi tinch-osuda hayot yo'lida jonfido qilgan mard yigitlarning matonati har bir avlod vakilida g'urur, iftixor bilan birga bugungi kunga shukronalik hissini uyg'otishi hech kimga sir emas.

Har yili, har oy va deyarli har hafta "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi, uning hududida

joylashgan "Shon-sharaf" davlat muzeyi eksponatlari soni ortib boraveradi. Chunki urushda domdaraksiz ketgan 158 mingdan ortiq hamyurtimizning noma'lum taqdiriga oydinlik kiritish yo'lidagi sa'y-harakatlar natijasida ularning ro'yxati ortib boraveradi. Muzey ma'muriyatining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yildan buyon shu paytgacha domdaraksiz yo'qolgan deb qayd etib kelingan 1 250 ka yaqin o'zbekistonlik jangchining shaxsi, halok bo'lgan joyi hamda boshqa ma'lumotlar aniqlandi. Shaxsiy buyumlari, orden va medallari muzey eksponatlari ro'yxatidan joy oldi. Bu soha mutaxassislarining, tarixchilarning, qolaversa Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Ukraina, Boltiqbo'yi va Yevropa davlatlaridagi qidiruv guruhlar bilan olib borilayotgan hamkorlikning samarasidir.

Qisqa qilib aytganda, "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi, "Shon-sharaf" davlat muzeyi Xalqaro muzeylar kunini xalqaro miqyosdagi e'tibor hamda e'tirof bilan kutib oldi. Vaqti kelib xalqimizning tarixiy-madaniy qiyofasini ajdodlar jasorati va matonati ko'rsatib beruvchi bu maskan jahonga mashhur "Luvr", "Ermitaj", "Metropolitan", "Prado" kabi muzeylar ro'yxatidan joy olsa ajab emas.

**Asror RO'ZIBOYEV,**  
"Vatanparvar"



MUASSIS  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MUDOFAA VAZIRLIGI

## VATANPARVAR



### Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
podpolkovnik Ulug'bek Fattaxov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti - "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

### Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

### Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

**Navbatchi:** podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova

**Sahifalovchi:** Tohirjon Turg'unboev

**Musahhih:** Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-6431

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 33 823 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan  
tahririyati bilan bog'lanish  
uchun telegram bot



**BIZ HAQIMIZDA**

[www.mudofaa.uz](http://www.mudofaa.uz)

[t.me/mv\\_vatanparvar\\_uz](https://t.me/mv_vatanparvar_uz)

[t.me/mudofaavazirligi](https://t.me/mudofaavazirligi)

[www.mv-vatanparvar.uz](http://www.mv-vatanparvar.uz)

[vatanparvar-bt@umail.uz](mailto:vatanparvar-bt@umail.uz)

[mudofaavazirligi](https://www.facebook.com/mudofaavazirligi)

[mudofaavazirligi](https://www.instagram.com/mudofaavazirligi)

[www.youtube.com/c/UzArmiya](https://www.youtube.com/c/UzArmiya)